

Bosh ilmiy-metodik
markaz

2022

O‘quv-uslubiy majmua

**“OLIY TA’LIMDA STRATEGIK
QARORLAR QABUL QILISH VA
JAMOATCHILIK NAZORATI”**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**OLIY TA’LIMDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISH VA
JAMOATCHILIK NAZORATI**

moduli bo‘yicha

O‘QUV – USLUBIYMAJMU A

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **A.X.Xolov** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar: **A.E.Yuldashev** - tarix fanlari doktori, professor
A.T.Umarov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.
(2022 yil “24” dekabrdagi 6/4-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	168
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	213
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	69
V. GLOSSARIY	85
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	90

I. IShChI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag‘i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “oliy ta’limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratish”, “barcha davlat organlarida qaror qabul qilish jarayonlari, ochiq va faqat ochiq bo‘lishini ta’minlash” kabi vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775son Qarori¹ va uning ilovasi bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»ga muvofiq, Jamoatchilik kengashining (keyingi o‘rinlarda Kengash deb yuritiladi) maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatları hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog‘laydigan ko‘prik vazifasini bajarishi lozim². Darhaqiqat jamoatchilik kengashlari davlat organining nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan bog‘lab turadigan halqa rolini bajarishi hamda takomillashib borishi darkor.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda oliy ta’lim muassasalari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, fuqarolik jamiyatni institutlari bilan aloqalarini mustahkamlash, jamoatchilikka axborot taqdim etishning tezkor va zamonaviy shakllarini joriy etilishi, malaka oshirish, ilmiytadqiqot ishlarini tayyorlash va amaliyotga tatbiq etish, nazorat-monitoring, xodimlarni ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganish va tizimdagi boshqa jarayonlarda shaffoflikni ta’minlanishi, professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamalarini optimallashtirish, kasbiy faoliyatga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775son Qarori

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <http://uza.uz/oz/documents/o'zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>

asosida oliy ta’lim tizimi xodimlarining mehnat unumдорligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Strategik rejorashtirish yagona usullar asosida kelajakdagи muammo va imkoniyatlarni rasmiy istiqbolini belgilashdan iborat va u OTMlар rahbar kadrlarini uzoq muddatli rejalarни tayyorlashga yo‘naltirilgan. Strategik rejorashtirishning xususiyatlari birinchidan, milliy reja elementlarni yagona strategik yaxlit tarzda qaraydi. Ikkinchidan, strategik rejorashtirish uzoq muddatli kelajakka qaratilgan. Uchinchidan, OTMlarni kelajakdagи muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilaydi.

Oliy ta’lim tizimida strategik qarorlar qabul qilish oliy ta’limning strategik maqsadlarin amalga oshirishga qartilgan dasturlarni ishlab chiqishda ishlatiladi. Ular uzoq muddatga, odatda bir necha yilga hisoblanadi va strategik maslalarni hal etilishidi ishlatiladi, shuning uchun uni istiqbol rejasi deb ataydilar.

Global pandemiya sharoitida strategik qarorlar OTMlар faoliyatidagi yangicha yondashuvlar, keskin burilishlarni silliq o‘tishini ta’minlaydi. Strategik qarorlar OTMlardagi yangi manbaalar xisobiga butun iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechishga yordam beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarida strategik qarorlar qabul qilish ko‘nikmasi va malaksini shakllantirish, ularda OTMlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexnaizmlariga doir bilimlarini kengaytirishdan iborat. Shuningdek, Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari amalga oshirish to‘g‘risida ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Modulning vazifalari:

- oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- oliy ta’limda strategik qarorlar qabul qilish usullarini tahlil qilish;
- global pandemiya sharoitida optimal qarorlar qabul qilishni amalda qo‘llash ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirish;
- oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga doir bilim va malakalarni shakllantirish;
- global pandemiya sharoitida OTMlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda innovatsiyalarni joriy etish masalalarini tahlil etish;
- tinglovchilarga OTMlarda strategik rejorashtirish va prognozlashtirish (foresight) haqida ma’lumotlar berish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

“Oliy ta’limda strategik qarorlar qabul qilish va jamoatchilik nazorati” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

tinglovchi:

- oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari;

- boshqaruvda tizimli tahlil uslublaridan foydalanilgan holda strategik qaror qabul qilishni amalda qo‘llash;

- OTMlarda strategik rejalashtirishni vazifalari va mazmun-mohiyatini anglashi;

- strategik rejalashtirish, qaror turlari va qarorni bajarishga qo‘yiladigan talablarni bilish;

- strategik menejment mazmun mohiyati;

- boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash usullari;

- OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatiining tashkiliy-huquqiy asoslari;

- OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini samarali tashkil etish mexanizmlari haqidagi **bilimlarga ega bo‘lishi**;

- oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil qilish;

- oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tahlili qila olish;

- OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

- OTMlarda strategik qarorlar qabul qilishda risklarni baholash bo‘yicha **ko‘nikma va malakalarini egallashi**;

- O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi asosida OTM\fakultet\kafedrani rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining ta’lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar asosida strategik qarorlar qabul qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 3775-sон qaroriga

muvofiq OTMlarda samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish kabi kompetensiyalarni egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar:

“Oliy ta’limda strategik qarorlar qabul qilish va jamoatchilik nazorati” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi:

“Oliy ta’limda strategik qarorlar qabul qilish va jamoatchilik nazorati” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Ta’lim boshqaruvida tizimli tahlil”, “Oliy ta’limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalar” va “Moliyaviy o‘zo‘zini ta’minalash jarayonida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni:

“Oliy ta’limda strategik qarorlar qabul qilish va jamoatchilik nazorati” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonda vujudga keladigan vaziyatlarda ta’lim manfaatini inobatga olgan holda maqsadli tahlilini amalga oshirish, maqbul qaror qabul qilishni o‘rganib, qarorlarga qo‘yiladigan talablar, qarorni tuzilishi, qarorni joriy etish va bajarish, baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICH A SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	Oliy ta’lim tizimida strategik qarorlar qabul qilish va jamoatchilik nazoratining mazmun-mohiyati. Oliy ta’lim tizimining strategik rivojlantirishga doir normativ-huquqiy hujjatlari. Oliy ta’limda strategik qarorlar qabul qilishning mazmuni. OTMlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zarurati. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.	2	2	
2.	Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish. Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyati tahlili. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda NNTlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining roli. OTMlarda jamoatchilik nazoratining yangi va samarali mexanizmlarini amaliyatga joriy etish.	2	2	
3.	Oliy ta’lim tizimida strategik qarorlar qabul qilishning zamonaviy usullari. Strategik rejalashtirish - strategik menejmentning muhim vositasi sifatida. OTMlarda boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash. Strategik qarorlar samaradorligini baholashda tizimli tahlildan foydalanish.	2		2
4.	Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari. Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari. Davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlari, davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirop etish. Jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshitushi, jamoatchilik monitoringi. Jamoatchilik ekspertizasi,	2		2

	jamoatchilik fikrini o‘rganish.			
	Jami:	8	4	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY TA’LIM TIZIMIDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISH VA JAMOATCHILIK NAZORATINING MAZMUN-MOHIYATI. (2 soat)

Oliy ta’lim tizimining strategik rivojlantirishga doir normativ-huquqiy hujjatlari. Oliy ta’limda strategik qarorlar qabul qilishning mazmuni. OTMlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zarurati. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.

2-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JAMOATCHILIK KENGASHLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. (2 soat)

Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyati tahlili. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda NNTlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining roli. OTMlarda jamoatchilik nazoratining yangi va samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etish.

AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: OLIY TA’LIM TIZIMIDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI. (2 soat)

Strategik rejorashtirish - strategik menejmentning muhim vositasi sifatida. OTMlarda boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash. Strategik qarorlar samaradorligini baholashda tizimli tahlildan foydalanish.

2-MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI. (2 soat)

Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari. Davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlari, davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish. Jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshitushi, jamoatchilik monitoringi. Jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o‘rganish.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar, keys texnologiyalari (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. // «Xalq so‘zi», 2014 yil 15 yanvar.

3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. // «Xalq so‘zi», 2016 yil 8 dekabr.

4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –T.: O‘zbekiston, 2017.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>.

6. Bilimli avlod – buyuk keljakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir // Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdaggi ma’ruzasi, <http://uza.uz/oz/politics/bilimli-avlod-buyuk-kelzhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018>.

7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. –B.488.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 30 dekabrda mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvida so‘zlagan nutqidan.// Xalq so‘zi, 2016 yil 31 dekabr.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr.

II. Me'yoriy- huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni 2014 yil 5 may O‘RQ-376 –son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947 - sonli Farmoni. Toshkent “Adolat” 2017 y. www.lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishchalar chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3775-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 20.04.2017 yil № PQ-2909 - sonli Qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2017 yil 2 fevraldagagi PQ-2752-sonli Qarori
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 27 iyuldagagi № PQ 3151 – sonli Qarori
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish haqida”gi 103-sonli qarori.
12. 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5185-sonli Farmoni // www.lex.uz.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Agranovich M.L. Indikatory dostijeniya seley ustoychivogo razvitiya v sfere obrazovaniya i natsionalnaya obrazovatelnaya politika. J.: Voprosy obrazovaniya. № 4. 2017 g., S.242-264. 1814-9545eISSN: 2412-4354.
2. Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri. –T.: Fan, 1999.
3. Berneys E. L. The Later Years. Public Relations Insights 1956-1986.- Rhinebeck: Free Press, 1986.
4. Okolesnova O.A. Obshchestvennyy kontrol: informatsionno-pravovye problemy teorii i praktiki: monografiya / O.A. Okolesnova. - M.: Ruslaysn, 2014. - 144 s.
5. Tayxler Ulrix. Mnogoobrazie i diversifikatsiya vysshego obrazovaniya: tendensii, vyzovы i variantы politiki. J.: Voprosy obrazovaniya. № 1. 2015 g., S.14-38. 1814-9545eISSN: 2412-4354.
6. Xolov A. X. Boshqaruv qarorlari qabul qilishda tizimli tahlildan foydalanish masalalari. J.: Jamiyat va boshqaruv. 2017 yil, № 2, 47 B.
7. Xoliqov Q. Jamoatchilik fikri: u qanday shakllantiriladi? //Fidokor, 2005, 28 iyun.
8. Chumikov A.N. Svyazi s obshchestvennostyu. –M.: Delo, 2000. – S.17.
9. Blek S. Vvedenie v pablik rileyshnz. Rostov-na-Donu, 1998. –S. 33-35.
10. Participation of Citizens in Local Public Life, report by the Steering Committee on Local and Regional Democracy (CDLR) prepared with the collaboration of Professor Gerry Stoker, adopted by the CDLR at its 25th meeting, 7-9 June 2000/ Local and Regional Authorities in Europe.
11. G‘afforov N., Madaeva Sh., Maxmudov R. – Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining faoliyati mazmuni. Monografiya. T.Iqtisod-moliya. 2017.
12. Qahhorov Otabek Siddiqovich, Ta’lim muassasalari boshqaruving samaradorligini boholashdagi yondashuvlar va usullar // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil.

13. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim tizimini boshqarish. -T.: “Turon-Iqbol”: 2006. – 592 b.
14. Xolov A.X. Assessing the effectiveness of management decisions of local executive authorities. // Journal of Management Value & Ethics /Approved List Journal S.No. 1 & 63148. Jan-March. 18 Vol. 8 No.1 90-97 P.
15. Xolov A.X. Boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashning zamonaviy usullari va rahbar mas’uliyati. Monografiya. –T.: «Tafakkur-qanoti» nashriyoti, 2017. -224 bet.
16. Xolov A.X. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishning nazariy-metodologik masalalalri 2-jild. O‘quv qo‘llanma (hammuallif). –T.: «Spectrum media group» nashriyoti, 2015. - 224 bet.
17. Xolov A.X. Jamoatchilik nazorati –axloq kuzgusi. // O‘zMU xabarlari, 2011. 6-son. 187-190 betlar.
18. Xolov A.X. Menejment fani rivojida boshqaruv qarorlari qabul qilishning psixologik usullarining ahamiyati. // «Fan va ta’limni rivojlantirishda yoshlarning o‘rni» respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: O‘zYol, 2017 yil 24 noyabr. 533-537 betlar.
19. Xolov A.X. Otsenki effektivnosti upravlencheskix resheniy. Monografiya. Lambert Academic Publishing, Beau Bassin 2018 // <https://www.lap-publishing.com> – 54 str.

VI. Internet ma’lumotlari:


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: www.press-service.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Hukumati portalı: www.gov.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi www.Lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining sayti. www.edu.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi veb-sayti: www.parlament.gov.uz.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI


Ta’lim sohasida o‘qituvchilar bilan ta’lim oluvchilar o‘rtasida keng ommalashgan uch xil o‘zaro hamkorlik texnologiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular: nofaol, faol va interfaol shakllar. Har bir ta’lim shakli bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning ta’rifi quyida keltirilgan:

I. *Nofaol shakl* – bu o‘qituvchi bilan ta’lim olayotgan boshqaruv kadrlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik texnologiyasi bo‘lib, bunda ta’lim jarayonida asosiy boshqaruvchi o‘qituvchi bo‘lib, ta’lim oluvchi nofaol tinglovchi bo‘lib qoladi. Ta’lim olayotgan boshqaruv kadrlari bilan teskari aloqa so‘rovlarga, nazorat ishlariga, testlarga, mustaqil savollarga asoslanadi. Demak, o‘zlashtirilgan axborotning aniqligi va hajmi uni o‘zlashtirish jarayoniga emas, balki o‘tilgan o‘quv fani natijalari bo‘yicha baholanadi.



1-rasm. O‘qitishning an’anaviy shakli


II. *Faol shakl* – bu mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik yuzaga keladigan o‘qitish texnologiyasi.



2-rasm. Ta’limning tadqiqotga oid shakli (faol shakli)

III. *Interaktiv shakl* – bu shunday o‘quv texnologiyasiki, unda ta’lim jarayonida nafaqat o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasida, balki ta’lim oluvchilar o‘rtasida ham muloqot shaklidagi o‘zaro hamkorlik amalga oshiriladi³.

³ Interaktiv (inglizcha “inter” – o‘zaro, “act” - harakatlanish)



3-rasm. Ta'limning interfaol shakli

Hozirgi paytda ta'lim oluvchilar oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun interfaol ta'limning turli xil usullari mavjud. Ularning har biri o'ziga xos bo'lib, o'z tuzilmasiga va amalga oshirish mexanizmiga ega. Bunda o'qituvchi o'quv materialining o'ziga xosligi, mashg'ulot maqsadi, moddiy-texnik ta'minoti va boshqalardan kelib chiqqan holda u yoki bu usulni tanlashga e'tibor qaratishi lozim.

Interfaol ma'ruza. U turli shakllarda o'tkazilishi mumkin:

muayyan vaziyatlar tahlil qilingan ma'ruza – tinglovchilarga yozma yoki og'zaki shaklda tahlil qilinishi lozim bo'lgan muayyan vaziyatlar havola qilinadi;

muammoli ma'ruza – mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi muhokama va tahlil qilish uchun muammoli vaziyatlarni yaratadi, ishlab chiqilgan xulosalar yangi bilimlarning ajralmas qismini tashkil etadi;

ma'ruza-vizualizatsiya - o'quv materiali rasmlar, taqdimotlar, videoyozuvlar, tarkibiy-mantiqiy sxemalar, diagrammalar shaklida axborot-texnik vositalardan foydalangan holda o'tiladigan ma'ruza;

rejalaشتirilgan xatolar bilan o'qiladigan ma'ruza (ma'ruza-provokatsiya) – ma'ruzaning mavzusi e'lon qilingach, o'qituvchi mashg'ulot davomida turli xil xatolarga yo'l qo'yilganini ma'lum qiladi: ular mazmun, uslub, xatti-harakatlar va b.larga oid bo'lishi mumkin, tinglovchilar ularni aniqlashi va ma'ruza so'ngida xabar qilishi kerak;

ikki kishilik ma'ruza (binar) – ikki nafar o'qituvchi ma'ruza qiladi, ularning tinglovchilar bilan muloqoti davomida muammoni qo'yish va muammoli vaziyatning tahlili amalga oshiriladi, farazlar ilgari suriladi, ular inkor qilinadi yoki isbotlanadi, vujudga kelgan ziddiyatlar va ularning yechimi izlanadi;

"matbuot anjumani" ma'ruzasi - ta'lim oluvchilar o'qituvchiga e'lon qilingan mavzu bo'yicha savollar berishi kerak, undan so'ng o'qituvchi ushbu savollarga javobni ma'ruza matniga kiritadi;

muloqot-ma'ruza va munozara-ma'ruza – ma'ruza jarayonida o'qituvchi o'quv materiali berilishini ta'lim oluvchilarga savollar berish bilan almashtirib boradi.

Ishbilarmonlik o‘yinlari va rolli o‘yinlar. Rolli o‘yin – bu yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va boshqaruv xodimlaridan u tushib qolishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda harakatlanish texnologiyasini ishlab chiqish. (masalan, attestatsiya, ishdagi favqulodda vaziyatlar, qo‘l ostidagilar bilan muommolar va b.). Rolli o‘yin mas’ul va xavfsiz yechimlarni qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Rolli o‘yinlarni ishbilarmonlik o‘yinlaridan farqlaydigan mezon o‘yin davomida baholash tizimining mavjud emasligi hisoblanadi.

Case-study (muayyan vaziyatlarni tahlil qilish). Keys - sodir bo‘lgan voqealar, real voqealar tufayli vujudga kelgan yoki muayyan vaziyatda ma’lum tashkilotda u yoki bu davrda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilishdan iborat. Keys-stadi uslubidan foydalanish maqsadi quyidagicha:

- tanqidiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirish;
- nazariya va amaliyotning bog‘liqligi;
- qabul qilinayotgan qarorlar va ularning oqibatlariga misollar keltirish;
- noaniqlik sharoitida muqobil variantlarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- turli fikr va nuqtai nazarni namoyish qilish.

Davra suhbati (munozara, muhokama, kollokvium) - bu interfaol o‘qitish texnologiyasi bo‘lib, ta’lim olayotgan boshqaruv xodimlarining anglash faoliyatini jonlantirish usullaridan biri. U avval olingan materialni o‘zlashtirish, yetishmaydigan o‘rinlarini to‘ldirish, mas’ul qarirlarni qabul qilish ko‘nikmalarini ishlab chiqish, munozara yuritish odobiga o‘rgatish imkonini beradi. Davra suhbating o‘ziga xos xususiyati shundaki, mavzuli munozara guruhli maslahatlar bilan qo‘sib olib boriladi.

Diskussiya (munozara) (lot. discussio - tadqiq qilish, ko‘rib chiqish) - dolzarb masalaning ommaviy yig‘ilish, muloqot, muhokama jarayonida ko‘rib chiqilishi. Jumladan, munozara – bu ma’lum nizoli masala, muammolar, g‘oyalar, takliflar, fikrlarning jamoaviy muhokamasi. Munozaraning maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin: ta’lim, trening, qarashlarni o‘zgartirish, notiqlik san’atini rivojlantirish, nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodkorlikni rag‘batlantirish va h.z.

Debat (muhokama) – ishtirokchilar – ikki yoki undan ortiq bir-biriga qarama-qarshi, raqib jamoalar (guruhlari)ning rasmiylashtirilgan muhokamasi. Ushbu ta’lim texnologiyasi voqealarni tahlil qilish, fikrni muhokama qilinayotgan muammoga jamlash, ma’lumotni to‘plash va unga ishlov berish, uni qo’llash imkoniyatlarini ijodiy anglash, ushbu muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini belgilash va uni himoya qilish, qabul qilingan qoidalar va umumiy faoliyat

taomillari asosida guruhda o‘zaro hamkorlikka rioxalishga asoslanadi.

Kollokvium – bu muammolar doirasini o‘qituvchi rahbarligi ostida muhokama qilish usulidir, ayni paytda bu tinglovchilar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan o‘quv materiali yoki mavzuning bir necha munozarali bo‘limlari muhokamasi bo‘lishi mumkin. Kollokvium o‘qituvchining talaba bilan individual suhbat shaklida yoki guruhli muhokama shaklida o‘tkaziladi.

Aqliy hujum (aqliy hujum, braine storming) — ijodiy faollikni rag‘battantirish asosida muammoni hal qilishni jonlantirish, bunda ta’lim olayotgan boshqaruv xodimlariga muammo yechimining eng ko‘p sonini, shu jumladan, reallikdan uzoq bo‘lgan yechimlarni bildirish taklif qilinadi. Undan so‘ng bildirilgan g‘oyalarning umumiyligi sonidan amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan eng moslari tanlanadi. Ko‘p tashkilotlarda ushbu usuldan turli-tuman vazifalarning yechimini topish maqsadida keng ko‘llaniladi, odatda ilojsiz yoki muammoli vaziyatlarda foydalaniadi.

Master-klass (mahorat darsi) – bu konseptual jihatdan yangi mualliflik g‘oyasini uzatish texnologiyasidir. O‘qituvchi o‘z kasbining ustasi sifatida qator yillar davomida o‘z ichiga maqsadni belgilash, loyihalash, ma’lum didaktik va tarbiya usullari, mashg‘ulotlar, tadbirlar, o‘z “Yangilik (nou-xau)”larini qamrab oluvchi individual (mualliflik) uslubiyotini ishlab chiqadi, tinglovchilarning turli toifalar bilan ishlash bo‘yicha real shart-sharoitlarni hisobga oladi va h.k.

Vebinarlar: onlayn va offlayn. Onlayn-vebinar – bu axborot-kommunikatsiya aloqasi, ya’ni Internet yordamida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotni tashkil qilish shakli. Mazmuniga ko‘ra, vebinar o‘qitishning nofaol shaklini bildiradi (bir tomonlama kommunikatsiya), kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi esa tinglovchilarni va o‘qitish jarayonini faol tarzda o‘tishini ta’minlaydi, tinglovchi-boshqaruvchilarni, o‘quv jarayoniga interaktiv funksiyalarni kiritgan holda jalb qiladi. Tinglovchi-boshqaruvchilarda emotSIONAL-motivatsion va kognitiv (bilishga oid) darajalarida faollahish kuzatilishi mumkin⁴.

⁴ Abramova G. S., Stepanovich V. A. Delovye igry: teoriya i organizatsiya (rukovodstvo prakticheskogo psixologa). — Yekaterinburg: Delovaya kniga, 1999.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: OLIY TA'LIM TIZIMIDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISH VA JAMOATCHILIK NAZORATINING MAZMUN-MOHIYATI (2 soat)

Reja:

1. Oliy ta'lim tizimining strategik rivojlantirishga doir normativ-huquqiy hujjatlari.
2. Oliy ta'lim tizimida strategik qarorlar qabul qilishning mazmuni.
3. OTMlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zaruriyati.
4. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.

Tayanch tushunchalar: *Strategik rivojlantirish, strategik qaror, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik kengashlari, o'qitish sifatini nazorat qilish, ta'lim sifatini nazorat qilish, jamoatchilik nazorati shakllari, strategik menejment. qisqa, o'rta va o'zoq muddatli strategik rejallashtirish, prognozlashtirish (foresight), strategik rejallashtirish hujjatlari. strategik qaror qabul qilish. prognozlashtirish bosqichlari. strategiyani ishlab chiqish, strategiyani amalga oshirish, strategiyani baholash.*

1. Oliy ta'lim tizimining strategik rivojlantirishga doir normativ-huquqiy hujjatlari. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni⁵, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni⁶, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni⁷, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr. <https://lex.uz/docs/5013007>

⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>

⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.<https://lex.uz/>

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori⁸, 2017 yil 27 iyuldagи “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori⁹ hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”¹⁰gi PQ-3775-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi¹¹ №515-son qarorilarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli farmonlarida belgilangan ustivor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda OTMlar faoliyati samaradorligini oshirishni maqsad qilib quyadi.

Hozirgi kunda davlat va jamiyat tomonidan rahbar va pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga yangi talablar qo‘yilmoqda, jumladan; “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF- 4732 – sonli, 2015 yil 12 iyun), shu farmon asosida chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagi 242-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 3 dekabrdagi 351-sonli “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o‘qitishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagи «**Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida**» PF-5763-son farmonida «zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali va yuqori professional darajada bajarishga qodir rahbar va pedagog kadrlarni tanlash hamda oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini bunday mutaxassislar bilan

⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. <https://lex.uz/>

⁹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagи “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. <https://lex.uz/>

¹⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarori. <https://lex.uz/>

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi¹¹ №515-son qarori. <https://lex.uz/>

ta'minlash, tizimli rag'batlantirish ishlarini olib borish hamda rahbar va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzlusiz tizimini tashkil etish, takomillashtirib borish, ularning kasbiy mahorati sifati va darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish, jumladan xorijiy davlatlarda malaka oshirish va stajirovka o'tashni tashkil etish, o'quv jarayonlariga xorijlik olimlar, o'qituvchilar va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish» vazifasi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagagi **“Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ-4391-son Qarorida “ta'lim muassasalarini zimmasiga yuklangan vazifalarni yuqori professional darajada bajarishga qodir rahbar va pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni tizimli rag'batlantirish choralarini ko'rish hamda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzlusiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, ularning kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishi uchun sharoitlar yaratish, xorijiy davlatlarda malaka oshirish va stajirovka o'tashni tashkil etish” vazifasi belgilangan.

2. Oliy ta'lim tizimida strategik qarorlar qabul qilishning mazmuni. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikka erishish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'limning budgetdan tashqari mablag'larga qaram bo'lib qolishi, o'z-o'zini moliyalash mexanizmining yangi usullarini qo'llashga majbur bo'lishi zamonaviy oliy ta'limda ro'y berishi mumkin bo'lgan oddiy haqiqatga aylangan. Bu esa strategiyalarni aniqlashtirib olish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlash zarurligini taqozo etadi. Oliy ta'limda strategik menejment va strategik rejalashtirish kabi boshqaruv usullarini qo'llash va u orqali sifatga erishish jarayonlari O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga kirib keldi. Ularni nazariy jihatdan mohiyatini ochib berish va amaliyatda qo'llash bo'yicha misollarni ko'rsata olishga qaratilgan ilmiy ishlar ham ko'payib bormoqda. Avvalo strategiyaning tavsifiga to'xtolib o'tsak. Strategiya – bu maqsadni amalga oshirishda rahbarlik qilish san'ati, har bir jarayon holatiga yechim qabul qilishda ma'lum harakatning taraqqiyotidagi eng muhim masalalar va yo'nalishlarni ajratish hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishdir. Ta'lim muassasasi strategiyasi – makro va mikroiqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan uning aniq joriy davrda rivojlanish maqsad va vazifalarini aniqlab beruvchi vosita hisoblanadi. Strategik rejalashtirish – strategik menejmentning muhim vositasi hisoblanadi. Strategik rejalashtirish, dastlab, xususiy sektorda keng tarqalgan

bo‘lib, doimo o‘zgarib kelayotgan tashqi muhitga samarali javob qaytarish uchun, davlat sektorlari va notijorat tashkilotlarida qo‘llanila boshlangan¹².

Strategiyalar OTMining asosiy yunalishlari hisoblangan o‘qitish, ilmiy tadqiqot va talabalar masalalari bo‘yicha belgilanadi. Chadvikning ta’kidlashicha, universitetlar o‘zlarining ta’lim jarayonlari, o‘qitish va o‘rgatish, ilmiy tadqiqot kabi faoliyatlari bo‘yicha sifatni oshirishga javobgarliklari oshib borarkan, akademik xodimlarning ta’lim jarayonilarini yanada kengroq tushunib borishlari lozim bo‘ladi¹³. Shu tariqa strategik reja va vazifalar aniqlashtirib olingandan so‘ng, strategiyani amalga oshirish bosqichida, “ishga kirishish”jarayoni boshlanadi. Erishilgan natijalar baholanadi va qayta ko‘rib chiqiladi. Hozirgi kunda dunyo OTMlarining aksariyatida strategik aniq maqsad va vazifalar belgilanib, uni amalga oshirish uchun strategik rejalahtishtajribasi yetarlicha bo‘lishi taqozo qilinmoqda.

Fikrimizcha, hozirgi davrda har bir OTM strategiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida ishlashga majbur bo‘ladi. Aksariyat hollarda strategiyalarni belgilash manfaatlar va qiziqishlardan kelib chiqadi. Xususiy OTMlarida strategiyalarni aniq va mukammal ishlab chiqiladi va aksariyat hollarda, strategik maqsadlar sir saqlanadi. Lekin, davlat OTMlarida strategiyalar, asosan, yuklatilgan mas’uliyat va javobgarliklardan kelib chiqadi. Mamlakatimiz sharoitida har bir OTMning o‘z strategiyasini belgilab olishi va strategik maqsad sari ish olib borishi uchun rahbar kadrlarning yetarlicha vakolatlari mavjud. Shunday ekan, manfaatlar va javobgarliklarni uyg‘unlashtira olishda rahbar kadrlar o‘z boshqaruv mahoratiga tayanadi. Yuqorida fiklardan va xorijiy tajribalardan kelib chiqib, strategik rejalahtirishni ichki strategiya va tashqi strategiyaga bo‘lishni tavsiya etamiz. Birinchisi ichki strategiya, ikkinchi esa tashqi strategiya. Ichki strategiyalar oshkora olib borilishi, barcha bo‘g‘in xodimlarga aniq mas’uliyatlar belgilash orqali, resurslardan oqilona va kreativ foydalanish yo‘li bilan ro‘yobga chiqariladi. Ichki strategiya ba’zi hollarda professor-o‘qituvchilar orasidagi “munosabatlar muhitining buzilishi” (academic antoganism), “o‘zgarishlarga qarshiliklar” (resistance to change) kabi faktorlarni bartaraf etishda yoki zararsizlantirishda ham foydalanish mumkin, chunki ikchi strategiyalarni olib borishda ijobiy va salbiy faktorlarni inobatga olmaslikning imkonini yo‘q. Tashqi strategiyalar asosan turdosh OTMlar bilan sog‘lom raqobatga kirishishda, o‘zaro hurmat prinsiplariga asoslangan holda olib boriladi, xususiy OTMlar tashqi strategiyani ixtiyoriy ravishda sir saqlash mumkin. Ma’lum bo‘ladiki, strategik rejalahtirishning har

¹² P.Lutfullaev. Oliy ta’lim muassasasida sifatni va raqobatbardoshlikni ta’minlashda strategik rejalahtirishning ahamiyati. // <http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/HEREs%20publication%202018%202.pdf>

¹³ Chadwick, P. (1996), “Strategic management of educational development”, Quality Assurance in Education, Vol. 4 No. 1, pp. 21-5.

ikki turi ham pirovardida OTMning muvaffaqiyatlarga erishishi, sifatni va raqobatbardoshlikni ta'minlanishi uchun xizmat qiladi. Shunday bo'lsada, xalqarolashuv jarayonining va uning komponentlari (xorijiy talabalar sonini oshirilishi, professor-o'qituvchilar almashinuvini ko'payishi, xalqaro ta'lim tashkil etish orqali budgetdan tashqari mablag'larning oshirilishi) OTMdak sifat raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim o'rinn tutadi va ularni strategik reja asosida amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi¹⁴.

Strategiya — bu:

- istiqbolni tadqiq qilish, turli ssenariyalarni tahlil qilish san'ati;
- istiqbolda raqobat kurashida afzallik beruvchi g'oya;
- korxonaning umumfaoliyati (fondi, quvvati, harajati, foydasi va hokazo)ni nazorat qiluvchi keng qamrovli tizim.

Strategik rejalshtirish – mamlakat, uning mintaqalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, maqsadli parametrlari, ustuvor vazifalarini belgilash, buning uchun zarur dastur va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

«Strategik rejalshtirish – bu kelajak haqidagi tasavvurni yaratish va mazkur kutilgan taxmin borasida boshqaruv». Bu qisqa muddatli qarorlarni uzoq muddatli maqsadlar bilan muvofiqlashtirish bo'yicha samarali jarayon.

Strategik rejalshtirish hujjatlari uchta darajada ishlab chiqiladi.

Республика даражаси	Минтақавий даража	Тармоқ даражаси
Ўзбекистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш прогнози	Минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш прогнози	Иқтисодиёт тармоғини ривожлантириш прогнози
Ўзбекистон Республикасини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш концепцияси	Минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш концепцияси	Иқтисодиёт тармоғини ривожлантириш концепцияси
	Худуд (туман, шаҳар)ни комплекс ривожлантириш дастурлари	Иқтисодиёт тармоғини ривожлантириш дастурлари

O'rta muddatli strategik hujjatlar (3 yildan 5 yilgacha) uzoq muddatlariga (5 yil va undan ortiq), qisqa muddatlar (1 yildan 2 yilgacha) o'rta muddatlariga muvofiq kelishi lozim.

Korxona maqsadi va vazifalarini tanlash strategik rejalshtirish jarayonining eng dastlabki va mas'uliyatli bosqichlaridan hisoblanadi. Bu jarayon rejalshtirishning keyingi barcha bosqichlari uchun mo'ljal vazifasini o'taydi.

¹⁴ P.Lutfullaev. Oliy ta'lim muassasasida sifatni va raqobatbardoshlikni ta'minlashda strategik rejalshtirishning ahamiyati. // <http://www.erasmusplus.uz/images/shared/file/HEREs%20publication%202018%202.pdf>

Korxona mablag‘ faoliyatining bosh maqsadi — kam mablag‘ sarflab, iste’molchilarga yuqori sifatli mahsulot yetkazib berish, topshiriq, shartnomalarini bajarish. Strategik rejalashtirish sifati ham ana shu bosh maqsadning qanchalik to‘g‘ri tanlanganligi va qabul qilinganligiga bog‘liq. Shu sohadagi tadqiqotlar maqsadning quyidagi mezonlarga mos kelishi lozimligini ko‘rsatadi:

- *aniq o‘lchovga ega bo‘lishi;*
- *davr (muddat)ning aniq bo‘lishi;*
- *amalga oshirish mumkinligi;*
- *muvofiqlashtirilishini ta‘minlash mumkinligi;*
- *ustuvorlikka ega bo‘lishi.*

Birinchi mezon maqsadning aniq me’yoriy o‘lchovga ega bo‘lishini talab qiladi. Masalan, “shu davr ichida xodimlarning xizmat pillapoyalari orasidagi o‘sishini taxminan 10-15 foizga oshirish”, “sifati a’lo, ammo bahosi shuncha foiz past bo‘lgan mahsulotni ishlab chiqarish” va hokazo. Bunday maqsadlarni aniq qo‘yish bilan rahbar barcha bo‘g‘inlarning istiqboldagi rivojlanishi bo‘yicha aniq miqdoriy mo‘ljallarni belgilaydi.

Strategik rejalashtirishdagi **ikkinchchi mezon** — bu prognoz qilinayotgan vaqt (davr)ni aniq belgilash lozimligi. Bu mezonga binoan, strategik rejalashtirish uzoq muddatli (besh yildan ko‘proq muddatga), o‘rta muddatli (bir yildan besh yilgacha) va qisqa muddatli (bir yilgacha) bo‘lishi mumkin.

Maqsadga erishishning **uchinchchi mezoni** ikki jihat nuqtai nazaridan muhimdir. Birinchidan, mo‘ljallangan maqsadning amalga oshmasligi korxonaga katta zarar yetkazishi, hattoki bankrotlikka olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, amalga oshirish mumkin bo‘lmagan maqsadning korxona oldiga qo‘yilishi band bo‘lgan xodimlarning muvaffaqiyatga intilishini bo‘g‘ib qo‘yadi. Bu esa o‘z navbatida ularning shaxsiy manfaatdorligini so‘ndiradi. Ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Strategik rejalashtirishdagi maqsadning **to‘rtinchchi mezoni** — bu maqsadning muvofiqlashtirilishini hisobga olishi. Bunday talab to‘la-to‘kis boshqaruvchilarning mahorati va malakasiga bog‘liq. Bu yerda gap qo‘yilgan maqsadning boshqa maqsadlarning amalga oshishiga xalaqit bermasligi to‘g‘risida ketyapti. Bosh maqsad va qo‘sishma maqsadlarning bir-biriga muvofiq kelmasligi turli bo‘g‘inlar ishida turli qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Maqsadga erishishning **beshinchchi mezoni** — bu strategik rejalashtirilayotgan ob’ekt bilan bog‘liq bo‘lib, uning ustuvorligiga e’tibor beriladi. Masalan, foydalilik, bozor segmentlari, moliyaviy resurslar, innovatsiya, sotsial himoya va boshqalar. Bu sohalar bo‘yicha maqsadlar ham mazmunan, ham ifodalananish shakli nuqtai nazaridan bir-biridan tubdan farq qiladi. Darhaqiqat, agar so‘z foydani uzoq

muddatga rejalashtirish haqida ketsa, u holda asosiy maqsad foyda, daromad ko‘lami, kapital qo‘yilmalarga ajratiladigan mablag‘ va hokazolar nazarda tutiladi.

Strategik rejalashtirish uchta katta savolga javob beradi.

1. Bugun biz qanday ahvoldamiz?
2. Biz kelgusida qaerda bo‘lishni istaymiz?
3. Biz kelgusida istagan manzilimizda bo‘lishimiz uchun nimaga e’tibor berishimiz zarur?

Amaliyotdan ma’lumki majmuali strategik rejalashtirish va boshqarishni joriy qilgan tashkilotlarda faoliyat tarmoqlar bo‘yicha nisbatan samaraliroq kechmoqda.

Strategik rejalashtirish va boshqaruvni o‘zida joriy qilgan tashkilot va korxona va firmalarda natija aniq va ko‘zlangan maqsadlarga kam talofatlar asosida erishish kuzatilmaoqda.

Ushbu holat oxirgi 30 yil davomida menejment nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha mutaxassislarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyoti tarkibiga kirdi va strategiyani hozirgi kunda tashkilot korxona va firmalarning missiyasini amalga oshiruvini ta’minlab beruvchi majmuali reja sifatida qaralmoqda.

Strategiya tashkilot, korxona va firmalarning mumkin bo‘lgan faoliyat chegaralarini va qabul qilingan boshqaruv qarorlarini belgilaydi.

Strategik rejalashtirishdagi qadamlar:

1. QARASH va “MAQSADLARDAN” (NEGA savolidan) boshlanadi
2. Qarash rivojlanish MAQSADiga (QANDAY) erishish uchun “STRATEGIYa” orqali amalga oshadi
3. Maqsadlarga erishganimiz haqida biz qanday bilamiz? “NATIJALAR” yordamida [NIMAGA]
4. Natijalarga qanday erishiladi? Rivojlanish bo‘yicha intervensiylar yoki rejalashtirilgan “TADBIR VA RESURSLAR” orqali

Strategik rejalashtirish. Strategik rejalashtirish atamasi 60-70 yillarda kiritilgan bo‘lib, ishlab chiqarishning joriy va kelajakdagi boshqaruvini quyi va yuqori farqlarini izohlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu farqlarni aniqlash avvalo biznes ni olib borish sharoiti bilan belgilanadi strategik rejalash g‘oyasi.

Strategik rejalashtirish yagona usullar asosida kelajakdagi muammo va imkoniyatlarni rasmiy istiqbolini belgilashdan iborat va u rahbariyatni uzoq muddatli rejalarini tayyorlashga yo‘naltirilgan.

Strategik rejalashtirishning xususiyatlari

Birinchidan milliy reja elementlarni yagona Strategik yaxlit tarzda qaraydi

Ikkinchidan strategik rejalashtirish uzoq muddatli kelajakka qaratilgan

Uchinchidan Strategik milliy iqtisodni turli elementlarining Strategik rivojlanishini aniqlaydi

To'rtinchidan strategik rivojlanishni kelajakdagi muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilaydi.

Hozirgi paytda strategik rejalashtirish usullarining qo'llanishiga FTRning ilg'or olqa siljishi, tadbirkorlik faoliyatida «havf-hatar» (risk) darajasining ortishi, mahsulot nomenklaturasi va biznes sohalarining differensiallashuv va diversifikatsiyalashuv jarayonlari, boshqaruv va tashkiliy tuzilmasining murakkablashuvi, muhim muammlarni yechishga katta e'tibor qaratish lozimligi kabilar sabab bo'lmoqda.

- **Prognоз** - bu istiqboldagi voqeа, hodisalarning ilmiy modeli hisoblanadi, ya'ni keljakda ob'ektning ehtimoliy holati haqida yoki bu holatga erishishning muddatlari va alternativ yo'llari haqida ilmiy asoslangan fikrlar, mulohazalar.

Prognозлаштириш deganda prognозni ishlab chiqish, ya'ni ma'lum bir jarayonning rivojlanish aniq kelajagini maxsus ilmiy tadqiq etishdir. Prognозлаштириш prognозni ishlab chiqish jarayoni.

Prognозлаштириш ва рејалаштириш - ijtimoiy rivojlanishni boshqarishning muhim vositasi bo'lib, tashkilotning ijtimoiy muhiti qanday ahvolda ekanligini tahlil qilishni, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olishni, potensial imkoniyatlardan istiqbolda foydalanishga mo'ljallangan loyihalar va dasturlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Prognозлаш методлари quyidagilardan iborat:

1. **Iqtisodiy prognозлаш**, konkret kompaniyaning yoki konkret maxsulotning sotuv xajmini va iqtisodiyotining umumiyligi ahvolini bashorat qilish uchun ishlatiladi.

2. **Texnologiyalarning rivojlanishini prognози**, qachon yangi texnologiyalar ishlab chiqarishni kutilmokdaligi, qanchalik iqtisodiy ta'minlanganligini bashorat qilish uchun xizmat qiladi.

3. **Raqobatni rivojlanishini prognозлаш**, raqobatchilarni strategiyasini va taktikasini oldindan bilishga yordam beradi.

4. **Izlanishlar va savol javoblar orqali kelib chiqadigan prognозлар**. Bu prognоз bilimlarni juda ko'p qismlardan yig'ilgan bu ma'lumotlar mushkul vaziyatlarda nimalar ro'y berishini ko'rsatib berishga yordam beradi. Masalan: kelgusida avtomobil bozorini yaqinlashib kelayotgan iktisodiy-siyosiy axvoli, texnologik o'zgarishlar, ekologiya talablarini o'zgarishi orqali bashorat qilish mumkin.

5. **Ijtimoiy prognозлаш**. Prognозлашning bu usullaridan to'liq foydalanilsa

korxona va umuman xalk xo‘jaligining barcha sohalarida olib boriladigan ishlar samarali bo‘ladi.

Prognozlashtirishning asosi – rivojlanish ssenariysini qurishdir. Bu texnologiya - voqealarning qadamba-qadam rivojlanishining gipotetik tasviri bo‘lib, u o‘z ichiga (kelajakdagi holatlar haqida umumiy tasavvurlarni shakllantirishdan tashqari) harakat qilishning muqobil variantlarini izlash, jarayon rivojlanishining burilish nuqtalari va boshqa tasniflarini o‘z ichiga oladi.

Prognozlashning umumiy mantiqi o‘zida maqsadlar miqyosi va xarakterini aniqlash va ishchi gipotezalar qurishdan bazaviy gipotetik modelga izchillik bilan o‘tishda ifodanadi. Bu jarayonda har bir unsur tahlil etiladi. Bunda modelning ierarxik darajalari va funksiyalari, ko‘rsatkichlarining dinamik tarixini tuzish va manzarali axborotlar to‘plash kabilar asosida prognozlashning aniqligi va ishonchli ekanligi baholanadi.

Tahliliy manbani tayyorlash jarayoni va bosqichlari yig‘ilgan axborot tahlili (faraz, ilgari surish, sabab-oqibat aloqadorligini aniqlash, tendensiyalarni belgilash, prognozlash) kabi usullarda namoyon bo‘ladi.

Prognoz variantlari tahlilning tarkibiy qismlariga kiradi. Prognozlash (biror-bir hodisaning kelajaqdagi holati haqidagi mulohaza) usulidir. Muammoli vaziyatni oldindan ko‘rishning barcha nozik tomonlarini bilish uchun axborot zarurdir. Ular, yopiq tarzda hamda ogohlantiruvchi va istiqbolni belgilovchi ruhda bo‘lib, ularni jamlash uchun vosita sifatida metrik usullar to‘g‘ri tanlanishi shart. Qolgani esa tahlilching ishi bo‘lib, u yetishmagan axborotni o‘zinining tahlilga bo‘lgan intellektual qobiliyati bilan to‘ldiradi.

Qaror qabul qilishda modellashtirish va prognozlashtirish usullari mavjud. Prognozni amalga oshirish murakkab intellektual faoliyat. Nazariy jihatdan prognozni mazmuni, tuzilishi, funksional jihatdan ahamiyatliliginin inobatga olib, quyidagi turlarga ajratish mumkin: va’dali prognoz; ishonchli prognoz; omilli prognoz; shubhali prognoz; axborotli prognoz va b.

Modellashtirish. Prognoz. SR modeli: “Ob’ektning institutsional


Tavsifi → Ob’ektning funksional tavsifi → Ob’ektning strategik tavsifi → Namoyon bo‘ladigan ehtimoliy muammolarning tavsifi → Ob’ektning boshqa ob’ektlar bilan aloqasi tavsifi → Ob’ektning faoliyatini ta’minalash uchun mavjud shart-sharoitlarning tavsifi →

Faoliyatni ta’minalashda hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarining tavsifi
→ Barcha tavsiflarning tahlili = Modellashtirish = Prognoz”.

Tizimli tahlil natijalarini sharhlash texnologiyasi quyidagi modelga ega.

Tizimli tahlil ob’ekti, predmeti va muammosini aniqlash





Tadqiqot natijalarini ishonchli va oydin bayon etib, taklif va tavsiyalar berish

Barqaror taraqqiyotning asosiy maqsadi:

- Aholi farovonligini oshirish;
- Aholi turmush darajasini yaxshilash;
- Har bir insonning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish;
- Yosh avlodning barcha qobiliyat va imkoniyatlarini amalga oshirish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarни bajarish talab etiladi:

Axborot bazasini shakllantirish. Bunda axborotning *to'liqligi, ishonchliligi, ochiqligi, dolzarbligi va qiyosiyligini* ta'minlashi lozim. Bunda uning bosh xossasi *haqqoniylig, foydalilik, yangilik, noyoblikdir*. U axborotning qiyosiyligini ta'minlaydi va kelgusida uni mazmun jihatidan tahlil qilishda ko'maklashadi.

Bundan tashqari *joriy ma'lumotlar* (nikohlar, tug'ilishlar, siyosiy va iqtisodiy voqealar va h.k.), vaqtning muayyan muddatida qayd etiladigan *davriy ma'lumotlar* (kvartallik, yillik hisobotlar va sh.k.), noyob hujjatlar yordamida yig'iladi.

Diagnostika va prognoz qilish.

Diagnostikaning maqsadi boshqaruv tizimining *haqiqiy holatini* aniqlashdan iborat. Ijtimoiy tizimlar diagnostikasida eng muhimi – tizimning holati va rivojlanishini belgilovchi ijtimoiy omillarni aniqlash, yuz berishi mumkin bo'lgan

oqibatlarni o'rganish.

Boshqaruvda **prognoz qilish** – boshqaruv qarori qabul qilishdan oldin keladigan, maqsadi prognozni shakllantirishdan iborat bo'lgan bosqich. *Prognoz* – muayyan ob'ekt yoki jarayonning kelajakdagi ehtimol tutilgan holati. Prognoz axboroti, ilgari to'plangan tajribadan, tizimning kelajakdagi ehtimol tutilgan holatlarini aniqlash axborotidan ham foydalaniladi. Prognozning vazifasi – rejalar va yechimlarni ilmiy asoslash va ishlab chiqishga ko'maklashish.

Prognozlar va bashoratlar farqlanadi. Ularning farqi – kelajak tavsifining aniqlik darajasida. Bashorat ob'ektning bo'lg'usi holati haqidagi ma'lumotlarning mutlaqo ishonchliliginiz nazarda tutadi va "aniq" fanlar doirasida ishlab chiqiladi. Ijtimoiy jarayonlar bunday qonunlarga bo'ysunmaydi, shu sababli bu yerda faqat tizimning haqiqatga ozmi-ko'pmi yaqin bo'lgan holatlarini aks ettiruvchi prognozlarga ilgari surilishi mumkin.

Ikkinci bosqich vazifalarining ikkalasi (diagnostika va prognoz qilish) ham birinchi bosqichda ishlab chiqilgan axborot bazasi asosida yechiladi.

3. OTMlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zaruriyati. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida samarali boshqaruvni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Samarali boshqaruvni tashkil etish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qaror toptirish rahbar kadrlar oldida turgan eng muhim vazifa – to'g'ri qarorlar qabul qilishga bog'liq.¹⁵

Keyingi paytlarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash kuchaydi. Korrupsiya — jamiyatning, davlatning ichki dushmani, katta xavf-xatarga ega, uncha-muncha balo-qazodan ko'proq ziyon-zahmat yetkazadigan dushman. Kuni kecha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish haqidagi farmon ham bekorga qabul qilingani yo'q. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi belgilab berildi. Bular, oliy ta'lim sohasida «Korrupsiyasiz soha» loyihasini izchil davom ettirish, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga barham berilishi, oliy ta'lim muassasalarini tajribali, halol, pok vijdonli, mas'uliyatli professor-o'qituvchi va xodimlardan shakllantirib, ularning vazifalarini aniq belgilab berilishi, oliy ta'lim muassasalarining jamiyat oldidagi hisobdorligi va ta'lim sifatini ta'minlashdagi mas'uliyatini oshirish, keng jamoatchilikni shaffoflik va xolislik tamoyillari asosida ta'lim xizmatlari sifati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan xabardor qilib borish belgilandi.

¹⁵Xolov A. Boshqaruv qarorlari qabul qilishda tizimli tahlildan foydalanish masalalari. J.: Jamiyat va boshqaruv. 2017 yil, № 2, 47 B.

Shuningdek, professor-o‘qituvchilar bilan talabalar o‘rtasidagi byurokratik omillarni bartaraf etish, baholash mezonlaridagi shaffoflikni kuchaytirish, talabalar bilimini baholashda adolatni ta’minlanishi, abiturientlar va magistraturada ta’lim olish uchun talabgorlar hujjatlarini qabul qilish, barcha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish, ularning bilimini baholash, o‘qishni ko‘chirish yoki qayta tiklash jarayonlarida suiiste’molchilik holatlarining oldini olish, bu borada jamoatchilik kengashlarining rolini oshirish, shaffoflikni ta’minlab borilishi, professor-o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, ushbu kasb jozibadorligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish masalalari ta’kidlandi.

Oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlarni ishga qabul qilish, lavozimlarga tanlov o‘tkazishdaadolat va ochiqlikni ta’minlash, o‘quv yili yakunlari bo‘yicha pedagog kadrlar faoliyatiga baho berish, bu borada jamoatchilik nazoratining yangi va samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etilishi, oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlariga rioya qilinishi, xarajatlar smetalarini shakllantirish tartibiga amal qilish va ichki moliyaviy taftish ishlarini takomillashtirish, ushbu jarayonda korrupsiyaga oid holatlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etilishini ta’minlanishi, oliy ta’lim tizimida kadrlar zaxirasini shakllantirish, odob-axloq normalariga rioya etilishini ta’minlash masalalarini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish belgilandi.¹⁶

Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashi faoliyatini samarali takomillashtirish birinchi navbatda oliy ta’limda har bir bajarilinayotgan ishlarda shaffoflikni ta’minlashdan iboratdir.

Jamoatchilik kengashlari faoliyatni rivojlantirish haqida so‘z borar ekan, avvalo muassasaning jamoatchilik tarkibini aniqlab olish zarur. U qanday aniqlanadi, degan savolga oddiy kuzatishlar orqali javob topish mumkin.

2018 yilda “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik Markazi o‘tkazgan so‘rovda ishtirok etganlarning 29 foizi oliy ta’lim tizimida korrupsiya keng tarqalgan degan fikrni bildirgan bo‘lsa, 2019 yilda bu salbiyko‘rsatkich 35 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi holatlarda jamoatchilik nazorati, jamoatchilik kengashlari sust ish olib borayotganligi, tizimda targ‘ibot-tashviqot ishlarining yetarli darajada olib borilmaganligi, yig‘ilishlarda tanqidiy tahlilning yetishmasligida deb ta’kidlashimiz lozim. Ushbu holatlarni yana takrorlanmasligi uchun jamoatchilik kengashlari maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, asosan qaerda ushbu holatlarga yetarlicha barham berilmadi, bu illatni tag tomiri bilan yulib tashlashda nimalarga

¹⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g“risida”gi O‘RQ-419-son-Qonuni. Toshkent. 3 yanvar, 2017 yil.

asosiy e'tiborni qaratish kerak, bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun jamoatchilik kengashlari sidqidildan o'z faoliyatlarini olib borishlari kerak.

"Pala-partish takliflarni berish va shoshma-shoshaarlik bilan qarorlar qabul qilish kerak emas"-deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoev.¹⁷

Ana shu pala-partishlik shoshma-shoshaarlik shunday oqibatlarga olib kelishi mumkin. Har bir ishimizni yetti o'ylab, bir kesishimiz zarurdir.

Oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik kengashlarini yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan axborot xizmati avvalo o'sha jamoatchilik tarkibini aniqlab olishi va muttasil ravishda ularning fikrlarini o'rganib borishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirish zaruriyati muhim deb hisoblaymiz. Oliy ta'lim muassasalrida sog'lom raqobat muhitini yanada shakllantirish, qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va ahloqiylikni ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, korruption holatlarga chek qo'yish maqsadida so'rovnomalari o'tkazish, navbatdagi muddatga tanlovdan o'tayotgan professor-o'qituvchilar orasida korrupsiyaga aloqador bo'lgan yoki moyilligi birlarni tanlovdan ishtiroy etishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratligi aynan jamoatchilik kengashining zarurligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, har bir sohada, ya'ni u ta'lim bo'ladimi, ishlab chiqarish yoki qurilishmi shaffoflik ta'minlanishi zarur. Shu tufayli jamoatchilik kengashlari har bir muassasaning ko'zgusidir.

Oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining halqaro tajribasi sifatida YuNESKOning bir qator fond va loyihalarini misol qilib keltirish mumkin. Fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha birlashgan millatlar tashkiloti bo'lgan YuNESKO o'z doirasida fuqarolik jamiyati ta'lim fondi (Civil Society Education Fund-CSEF) 2012 yil "Ta'lim fondiga tomon global hamkorlik" (Global Partnership for Education Fund) loyihasiga Ta'lim uchun global kompaniya ("Global Campaign for Education") missiyasi doirasida US\$14.5 ml. ajratgan. Hozirgacha ushbu loyihada YuNESKOning super vayzerlik roli oshib har yili deyarli US\$ 7.25 ml qo'shilmoqda¹⁸.

Oliy ta'limda muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining halqaro tajribasi sifatida AQSh tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu tajriba Amerikadagi pragmatizmni boshlab bergeniga guvoh bo'lamiz. Pragmatizm Amerika ta'lim va ilm-fan siyosatiga nisbatan faqat pozitiv ma'noda emas, balki parazitizm, ya'ni boshqalar

¹⁷ Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent, 2017 yil, 14 yanvar

¹⁸ UNESCO Biannual Progress and Supervision Report, October 2016. pg.2

mehnati va resursi evaziga kun ko‘rvuchi organizm ma’nosida qo‘llanilishi mumkin. Chunki AQShda n ilm-fan sohasi epistemiologik, dunyoqarash, ta’lim, amaliyotni kreativ o‘zgartiruvchilik vazifalaridan tashqari yana bir qancha ijobiy va bir vaqt ni o‘zida salbiy funksiyalarni ham o‘z zimmasiga olgan.

Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining halqaro tajribasi sifatida Germaniya, AQSh va turli xalqaro tashkilotlar tajribasini tahlil etar ekanmiz umumiy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, ushbu tajriba har doim xam o‘zi qo‘llanilayotgan jamiyat, guruh, manfaatlar ehtiyoji va muammolaridan kelib chiqqan hamda demokratik tamoyillarning xolis yoki noxolis, insonparvar yoki manfaat asosidagi qiziqishlardan kelib chiqib amal qilgan. Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda fuqarolik jamiyati institutlari tajribasi mintaqqa va hududning tarixiy, milliy va lokal masalalaridan kelib chiqib hal etilgan. Germaniya tajribasida barcha tamoyil va maqsadlari ijobiy xarakterga ega bo‘lgan tizim, Amerika tajribasi misolida demokratiya niqobi ostida geosiyosiy va milliy davlat manfaatlarini ko‘proq ko‘zlagani namoyon bo‘ladi. Lekin bir narsani ta’kidlash joizki, fuqarolik jamiyati ta’siri ta’lim tizimi bilan sinkretlashganda har doim ham paradoksal ravishda kreativ, innovatsion yangiliklarni, dunyoviy o‘zgarishlarni beradi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar (Avstraliya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, AQSh) oliy ta’lim muassasalarida ta’lim tizimini isloh qilish va hayotiy qarorlarni qabul qilish jarayoni ko‘proq ochiqlik va shaffoflikka asoslanish (normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida jamoatchilik eshitushi va muhokamasi tashkil etish) jarayoni kuzatiladi. Bu to‘laqonli jamoatchilik nazorati tamoyillari mos keladi va bu tajribani mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim dargohlariga samarali vosita sifatida tizimli tarzda joriy etishni taqozo etmoqda.

Oliy o‘quv yurtlarida xorijiy oliy ta’lim muassasalaridagi kabi jamoatchilik kengashlari samarali ishlay boshlasa, muassasaning avtonom ishlash tamoyilini maydonga keltiradi, uning rivojlanishi, mutaxassisliklarni tanlash, ishlab chiqarish hamda fan integratsiyasini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini oshiradi.

Oliy ta’lim o‘quv yurtlaridagi Jamoatchilik kengashlari faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, birinchidan, jamoatchilik kengashlari rasman tuzilgan bo‘lsada, ish faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yilmagan, ikkinchidan, kengash faoliyati muassasalar hayotida faoliyati yoritilmagan, axborotlar berilmagan, uchinchidan, institutlar ma’muriyatiga ta’sir o‘tkazish imkoniyati past, chunki uning shakllanishida ma’muriy resurs keng qo‘llanilgan, to‘rtinchidan, mavjud nodavlat tashkilotlarning faoliyati oliy ta’lim dargohlarida yetarli kuchga ega emas.

4. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatiining tashkiliy-huquqiy asoslari.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadi, o‘z navbatida, jamoat tashkilotlari oldiga nafaqat davlat hokimiyyati organlari faoliyati, balki, davlat siyosatiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan jamiyat siyosiy tizimining boshqa institutlari ustidan ham jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vazifasini qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uni yanada samarali tashkil etish ko‘p jihatdan nodavlat jamiyati tuzilmalari va uyushmalari, fuqarolik jamiyati institutlariga bog‘liq ekanligi, buning uchun esa ana shu tuzilmalarning mustaqilligini amalda ta’minalash, ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish hamda faolligini oshirishga ko‘maklashish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy va huquqiy mehanizmlarini to‘la ishlab chiqish o‘ta dolzarb masala ekanligiga e’tibor qaratar ekan, jumladan: “qonunlar ijrosini ta’minalash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo‘lgan me’yoriy xujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz “Adolat – qonun ustuvorligi” degan hayotiy tamoyilga qat’iy amal qilib yashashishmiz zarur. Biz uchun bundan boshqa yo‘l yo‘q”, deb ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligi, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo‘lishini ham muayyan darajada ta’minalaydi.

Mazkur mavzu bo‘yicha o‘zbekistonlik olimlardan ilmiy tadqiqot ishlarida X.R.Muxamedxodjaevanin¹⁹g fikricha, “Jamoatchilik nazorati jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, ijodiy uyushmalar, olimlar jamiyati, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolar hamda ularning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa uyushmalar tomonidan nazorat qilinayotgan davlat organi faoliyatida qonuniylik va inson huquqlariga rioya etilishini ta’minalash, kuchaytirish maqsadida amalga oshiriladigan nazoratdir” deb tahriflaydi, J.Chorshanbiev²⁰ fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoatchilik nazoratining ahamiyati haqida fikr yuritib, “jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiyadolat barqaror bo‘lishida shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida tenglik, mas’uliyat va javobgarlik bo‘lishi uchun xizmat

¹⁹ Muxamedxodjayeva X.R. Ijro hokimiyyati faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazorati: nazariyhuquqiy muammolar. Yurid. fanlar nomz. dis... avtoref. – Toshkent, 2011

²⁰ Chorshanbiyev J. Fuqarolik jamiyati shakllanishida jamoatchilik nazoratining ahamiyati // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – T., 2008. №2. – B.14.

qiladigan muhim omilligini tadqiq etgan, Sh.Bafaev²¹ jamoatchilik nazorati demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim omili sifatida, M.Najimov²² jamoatchilik nazorati institutining nazariy-metodologik jihatlarini, X.Xaitov²³ jamoatchilik ekspertizasi to‘g‘risida, A.Xolov²⁴ jamoatchlik nazoratini boshqarish yuzasidan xususan, qarorlar qabul qilishda tizimli tahlildan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat bergen, R.Hakimov²⁵ning fikricha jamoatchilik nazorati-muntazam nazorat qilishni, M.Mamasiddiqov²⁶ jamoatchilik nazorati faoliyatni samarali tashkil qilishda muhimligi to‘g‘risida ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Rossiyalik olimlardan S.Zubarev²⁷ jamoatchilik nazoratining mohiyati, O.Okolesnova²⁸ jamoatchilik nazoratining axborot, huquqiy muammolarini, V.Grib²⁹ jamoatchilik kengashlari jamoatchilik nazorati tizimining asosiy elementligi, S.Taxoeva³⁰ deb ta’kidlagan, A.Chumikov³¹ esa ilmiy-tadqiqot ishlarida jamoatchilik nazoratini faollashtirish masalalariga alohida ahamiyat bergen.

O‘zbekiston Respublikasi yuridik ensiklopediyasida qayd etilishicha, jamoatchilik nazorati – bu davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (institutlari), shuningdek davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori ta’lim sohasidagi islohotlarning

²¹ Bafayev Sh. Obshyestvennyi kontrol kak vajniy faktor postroyeniya demokraticeskogo pravovogo gosudarstva i grajdanskogo obshyestva // Obshyestvennoye mneniye. Prava cheloveka. – T., 2007. № 1. – S.30.

²² Нажимов М. Theoretical and methodological aspects of the institution of publ Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2017 Yuridik fanlar axborotnomasi-Вестник юридических наук-Review of Law Sciences 1 (2017) 25-32 2.

²³Хайтов Х. Қонун лойиҳалари- жамоатчилик назоратининг муҳим шакли сифатида.

²⁴Ходов А. Бошқарув қарорлари қабул қилишда тизимли таҳлилдан фойдаланиш масалалари. Ж.: Жамият ва бошқарув. 2017 йил, № 2, 47 Б.,

²⁵Hakimov R. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari // Fuqarolik jamiyati. – 2011. – № 10.

²⁶ M.Mamasiddiqov Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omilidir // Huquq va burch. 2014. № 5.

²⁷ Zubarev S.M. Ponyatiye i siqnost obshyestvennogo kontrolya za deyatelnostyu gosudarstvennix organov. elektron resurs: <http://justicemaker.ru>.

²⁸Околеснова О.А. Общественный контроль: информационно-правовые проблемы теории и практики: монография / О.А. Околеснова. - М.: Руслайнс, 2014. - 144 с.

²⁹ Гриб В.В. Общественные советы как основные элементы системы общественного контроля РФ / В.В. Гриб // Российская юстиция. -2015. - № 5. - С. 2-5.

³⁰ Taxoyeva S.S. Konstitucionno-pravovoy status Obshyestvennoy palati Rossiyskoy Federatsii: voprosi teorii i praktiki. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk. 12.00.02 – konstitucionnoye pravo; munitsipalnoye pravo. – Moskva, 2009

³¹ Чумиков А.Н.Связи с общественностью. –М.: Дело, 2000. – С.17.

jadal rivojlanishiga keskin impuls beradigan muhim hujjat sifatida keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilmoqda.

Mazkur qarorning pirovard maqsadi oliy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yasashga qaratilgan bo‘lib, uning ijrochisi o‘qituvchi shaxsining mavqeini jamiyat oldida tiklash, ta’limga aloqasi bo‘lmagan ishlarga jalb qilinishiga chek qo‘yish, shu bilan birgalikda uning professionallik darajasini va mas’uliyatini oshirish, o‘qitish tizimiga yangi shakllarni joriy etish va boshqalarni nazarda tutadi.

Bu qaror ta’lim islohotlari orasidagi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli biz mazkur qarordagi 3 ta muhim holatga: oliy ta’limda ishlaydigan professor-o‘qituvchilar, rahbarlar va ta’lim sohasi bo‘yicha mutasaddilarning diqqatini tortmoqchimiz. Birinchisi, talabalar bilimini baholashning shaffof va adolatli, dars bergen o‘qituvchi ishtirok etmaydigan tizimni joriy qilish bo‘lsa, ikkinchisi, talabaning o‘zlashtirish darajasi - professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni sifatida olinishi, uchinchisi esa, professor-o‘qituvchilarni ishga olishda sinov darslarini o‘tkazishdir. Haqiqatan ham bu uch holat ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillar qatoriga kiradi.

Fuqarolik jamiyati institatlari orqali OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini oshirish muammosi jahon tajribasida yangi tajriba bo‘lmay, bu rivojlangan G‘arb va Yevro-atlantik davlatlarda demokratlashtirish jarayonining ajralmas bir qismidir. Chunki aksariyat taraqqiy etgan demokratik davlatlar ta’lim tizimida, xususan AQSh ta’lim siyosatida “insonlarning ta’lim olishi millatning shakllanishidir”, degan tamoyilga asoslangan, ya’ni Amerika kabi kelib chiqishi millatsiz rivojlangan multikultural davlatda millat fuqarolik madaniyati ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi va yuksak fuqarolik madaniyati bilan tarbiyalangan inson millatning bir qismidir. Shuning uchun ham ta’lim siyosati yuqori madaniyatli elitani yetishtiruvchi soha sifatida strategik xarakterga ega.

Fuqarolik jamiyati institatlari orqali OTMlarda jamoatchilik kengashlarining samaradorligini oshirish mavzusi alohida yo‘nalish kasb etgan soha ta’lim sotsiologiyasi bo‘g‘inda o‘rganiladi. XX asr sotsiologiyasida ushbu masalani alohida mavzu sifatida o‘rganilishini boshlab bergen G‘arb sotsiologlari Maks Veber va Emil Dyurkgeym bo‘lib Amerika ta’lim sotsiologiyasi esa Robert Merton tomonidan rivojlantirilgan. Zamonaviy davrda mazkur masala alohida tadqiq etilgan ilmiy ishlardan biri Immunuel Vallersteynning “Biz bilgan dunyoning tugatilishi” nomli kitobidir. Bu kitobda Vallersteyn yangi dunyo ta’lim tizimi hozir katta paradigmal, ya’ni shakl va mazmun jihatdan o‘zgarishlar arafasida turgani, fan-ta’lim endilikda demokratlushuv va insonparvarlikka xizmat qilmasa, dunyo xalokati muqarrar ekanligi, shuning uchun ham dunyo ta’lim siyosatini OTMlar demokratlashuv va ijtimoiy hamkorlikka qaratishi, ilm, madaniyat hamda axloqiy

tarbiyaviy mezonlari asosida yetishtirilgan elitani^{*32} tarbiyalashga karatishi zarurligini ta'kidlab o'tadi.

I.Vallersteyn OTM va fuqarolik jamiyatni hamkorligi sifatida Germaniya tajribasini tahlil etar ekan, unga asosan fuqarolik jamiyatni va otmalarda jamoatchilik kengashlari tizimining institutlashgan hamkorligi shakli XX asrdan beri mavjud deb tushunilsada, aslida bunday tizimlar XIX asrdayoq Germaniyada mavjud edi, deydi. 1872 yil Eyzenaxda iqtisodchi va ijtimoiy falsafa olimlari G.Shmoller va G.Shenberg va b. dan iborat tashkil etilgan “Ijtimoiy siyosat ittifoqi” mulkiy va ijtimoiy tengsizlikni tugatishga qarshi jamiyatga ta'lim tizimi orqali ta'sir etish g‘oyasi asosida hamkorlik ishlarini boshlang‘ich ta'limdan universitetlarga qadar bo‘lgan darajada amalga oshirganlar.Unga ko‘ra butun jamiyatda boshlang‘ich ta'lim majburiy bo‘lib, ta'limning boshqa bosqichlarida baxtsiz xodisalardan sug‘urtalash, yosh kategoriyasiga qaramay ish joylariga teng taqsimlash tamoyili alohida sohalar bo‘yicha ish olib boruvchi fuqarolik jamiyatni institutlarida nazorat qilib borilgan³³. XIX asr oxiri va XX asr boshida Germaniyadagi bu mexanizm keng miqyos kasb etdi. Chunki Germaniya ta'lim tizimida OTM doirasida tahsil olish yosh jihatdan cheklanmagan. Buning sababi shundaki, bir tomondan Germaniya demografik jihatdan yoshi katta aholisi aksariyat foizni tashkil qiluvchi mamlakat, ikkinchi tomondan undagi madaniyat darajasi eng yetuk darajadagi sifatni hosil qilish tamoyiliga asoslangan. Shuning uchun ham fuqarolari uzlusiz ravishda yoshi cheklanmagan tarzda ta'lim olishi, o‘zini takomillashtirishi va ta'lim-tarbiya deganda aksariyat hollarda malakali mutaxassisning kasb nuqtai-nazaridan tarbiya, ya’ni o‘zi xizmat qiladigan sohaga tegishli mijozlarga xizmat qila olish ko‘nikmasi, kasbiga e’tiqod va kasbni jamiyatda san’at darajasiga olib chiqqan holda taqdim eta olish madaniyatiga ega bo‘lishi tushuniladi³⁴.

Nazorat savollari:

1. Jamoatchilik nazorati bosqichlari nimalarni o‘z ichiga oladi?
2. Jamoatchilik nazorati guruhlarini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad.
3. Oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik kengashlarini tashkil etish .
4. 2. OTMdagi jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari.
4. Oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik kengashlarini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad.

^{*32} Elita so‘zi odatiy ma’noda jamiyatning mag‘zini, qaymog‘ini tashkil etgan kamchilik yoki aristokrat tabaqasi sifatida kelsa, yuqorida qayd etilgan ta'lim tizimida elita so‘zi dunyonи asrab qolishga qaratilgan insonlar, komil insonlar ma’nosida qo‘llanilyapti.

³³ Vallersteyn I. Kones znakomogo mira. – M: «Logos», 2004. – S . 235.

³⁴ Iudina A. Shpiliv V. Sovremennaya nemeskaya sotsiologiya(obzor): Obrazovanie v sovremennoy Germanii. – Nijny Novgorod: NISOS, 2010. 60-str.

5. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.
6. Oliy ta’lim muassasalarida Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishda .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2017 yil 3 yanvar // «Xalq so‘zi» gazetasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
7. Ismoilov B.I. Davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning amaliy jihatlari // “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirish masalalari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2007. – B.113–116;
8. Soleev A. O‘zini o‘zi boshqarish organlari – jamoatchilik nazorati sub’ektlari sifatida // Fuqarolik jamiyat. – T., 2008.– B.17–23;
9. Mamatov X. Fuqarolik jamiyat – jamoatchilik nazorati mexanizmi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi. – T., 2008. – №4. –B.34–35.
10. Chorshanbiev J. Fuqarolik jamiyat shakllanishida jamoatchilik nazoratining ahamiyati // Demokratlashtirish va inson huquqlari. –T., 2008. – №2. – B.14.

Internet saytlari:

11. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
12. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

13. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
14. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET.
15. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
- 16.<https://jamoatchilik.uz/>.
- 17.<http://ochiqlik.uz/>
- 18.<http://salohiyat.uz/>.

2-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JAMOATCHILIK KENGASHLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.

Reja:

1. Oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tahlili.
2. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda NNTlar roli.
3. OTMlarda jamoatchilik nazoratining yangi va samarali mexanizmlarini amaliyatga joriy etish.
4. Oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.

Tayanch tushunchalar: Oliy ta'lim muassasalari, jamoatchilik kengashlari, fuqarolik jamiyati institutlari, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi, ta'sirchan jamoatchilik nazorati, ommaviy axborot vositalari, shaffoflik va xolislik tamoyillari, jamoat tashkilotlari, kadrlar buyurtmachilari, ta'lim sifati, tizimli ravishda monitoring o'rnatish.

2.1. Oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tahlili.

OTMning jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son qaroriga muvofiq, OTM huzuridagi Jamoatchilik kengashining vazifalari va vakolatlari hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Mazkur Qaror hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 28 iyuldagagi "Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 670-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida universitetning 2018 yil 2 avgustdagagi "Jamoatchilik kengashi to'g'risida"gi 668-sonli buyrug'i rasmiylashtirildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 9 avgustdagagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 708-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash taqsadida universitetning 2018 yil 20 avgustdagagi "Vazirlikning 2018 yil 9 avgustdagagi 708 -sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 717-sonli buyrug'i rasmiylashtirildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 8 oktabrdagi "Vazirlikning 2018 yil 9 avgustdagagi 708 -sonli buyrug'iga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritish to‘g‘risida”gi 846-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida universitetning 2018 yil 23 noyabrdagi 945-sonli buyrug‘i rasmiylashtirildi. Ushbu buyruq bilan vazirlik huzuridagi jamoatchilik kengashining 2018-2019 o‘quv yili uchun tasdiqlangan ish rejasi asosida ishlab chiqilgan universitet jamoatchilik kengashining 2018-2019 o‘quv yili uchun ish rejasi tasdiqlandi.

Misol uchun bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida Jamoatchilik kengashi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- 2018-2020 o‘quv yillarida abiturientlar qabulida ijodiy imtihonlarni shaffof o‘tishi uchun nazorat ishlarini olib bordi.

- 2018-2020 o‘quv yillarida davomida oliy ta’lim muassasalari o‘quv binolariga kirish joylarida professor-o‘qituvchilar hamda talabalarning dars mashg‘ulotlariga kech qolishlarini bartaraf etish hamda kiyinish odobiga rioya qilishlari ustidan nazorat o‘rnatildi;

- Jamoatchlik kengashi taklifi bilan oliy ta’lim muassasalarida xizmat ko‘rsatgan professor, xizmat ko‘rsatgan dotsent, xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi faxriy unvonlari qaytadan tiklanib, uning nizomi ishlab chiqildi va universitet ichki buyrug‘i rasmiylashtirildi.

Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan kafedralarning eng yaxshi professor-o‘qituvchilar mashg‘ulotlari o‘rganildi, tahlil qilindi va dekabr oyi universitet kengashi muhokamasiga xavola qilindi.

Oliy ta’lim muassasalari Axborot resurs markazi faoliyati, holati, kitob fondi o‘rganildi va tegishli tavsiyalar berildi. Jamoatchlik kengashi va Faxriylar kengashi hamkorligida universitet hududidagi tozalikni saqlash, o‘quv binolarida ko‘rgazmali targ‘ibot vositalari va boshqalarni tartibga solish maqsadida “Obod universitet” g‘oyasi ilgari surildi va universitetning ichki buyrug‘i rasmiylashtirildi.

Oliy ta’lim muassasalarida Ishchi guruh tarkibi shakllantirilib, bo‘lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va professor-o‘qituvchilarning dars o‘tish jarayonlari o‘rganildi uning tahlili va muhokamasi universitetning navbatdagi kengashiga olib chiqildi va har bir professor-o‘qituvchilarning o‘tgan darslari tanqidiy tahlil nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga elektron bazaga barcha professor-o‘qituvchilarning xujjatlari, talabalarning baholash reyting tizimi, hisobotlari kiritilib, ushbu sohada shaffoflikni ta’minlash ta’minlandi. Shuningdek, jamoatchilik kengashi Nizomiga muvofiq professor-o‘qituvchilar va barcha talabalar uchun universitet hududida joylashgan oshxonalar va bufetlarning xolati, sanitariya-gigiena talablariga rioya qilishlari, ovqatlarning narx-navolari ishchi guruh tomonidan o‘rganildi.

Jamoatchilik kengashi tashkil etilishi universitetning o‘quv, tarbiyaviy,

xo‘jalik, obodonlashtirish va boshqa sohalarida faoliyatni tashkil etishda katta yordam berishi mumkin bo‘lgan tashkilot ekanligi ko‘rindi. Uning faoliyatidan korrupsiyaga qarshi kurashish, uni oldini olish, universitet jamoasi o‘rtasida ijtimoiy muhitni yanada sog‘lomlashtirish masalalarida foydalanish ijobiy natijalar keltirishi kuzatilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida Jamoatchilik Kengashining 2019 yil birinchi yarmida oshirilgan ishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev yurtimizda «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»³⁵ deb e’lon qilganligi, bunga bag‘ishlab 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilinishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Mazkur Dasturni ijroini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may kuni “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni³⁶ qabul qilingan bo‘lib, universitet Jamoatchilik Kengashi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki dastur ishlab chiqildi, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday xizmatlarni raqamlashtirish muhimligi bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borildi va mazkur ish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Oliy ta’lim muassasalarida Jamoatchilik Kengashi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilashga xizmat qilishi haqida aytib o‘tdi. Bu boradakorrupsiyaga sharoit yaratuvchi holatlarni o‘rganish maqsadida talabalar, professor-o‘qituvchilar, universitet xodimlarining fikr va takliflari o‘rganildi va bular asosida korrupsiyani bartaraf etish, oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi; korrupsiya holatlarini aniqlashga yordam ko‘rsatuvchi «xolis talaba», “xolis xodim” tizimi ishlab chiqilishiga asos yaratildi. Bu borada huquqbuzarliklar va ularga sharoit yaratuvchi omillar haqida xabar berishga imkoniyat yaratuvchi telegramm kanalni ishga tushurish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ular o‘z davom etmoqda va shu orqali universitet sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlarning shaffofligini ta’minalashga zamin yaratilayotganligi haqida aytib o‘tdi.

Oliy ta’lim muassasalarida Jamoatchilik Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyasining 2020 yil 18 yanvar kuni Oliy ta’lim sohasida korrupsiyani oldini olish va uni bartaraf etish yuzasidan vujudga

³⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. 2019 yil, 28 dekabr.

³⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may kuni “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

kelgan ahvolni muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan 2020 yil uchun “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi va kelajakdagi vazifalar belgilandi.

Oliy ta’lim muassasalarida Jamoatchilik Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyasining 2020 yil 18 yanvar kuni Oliy ta’lim sohasida korrupsiyani oldini olish va uni bartaraf etish yuzasidan vujudga kelgan ahvolni muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan 2020 yil uchun tuzilgan “Yo‘l xaritasi” haqida fikr bildirildi. Kengash raisi Respublika tashkilotlarida, ayniqsa oliy ta’lim tizimida korrupsiya avj olganligi, ushbu masala bo‘yicha shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan korrupsiya O‘zbekistonning siyyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy oqibatlarga olib kelayotganligi haqida aytيلayotganligi, bu masalada Oliy ta’lim muassasalari Jamoatchilik Kengashi o‘zining qat’iy pozitsiyasiga ega bo‘lishi muhim

Korrupsiyaning vujudga kelishi, u bilan kurash olib borish insoniyat rivojlanishining barcha tarixiy davrlarda bo‘lganligi va har bir madaniy-tarixiy davrda kurash o‘ziga xos usullar bilan olib borganligi va ma’lum yutuqlarga erishilganligi, shu bilan birgalikda kurashish usullari jamiyatdagi o‘zgarishlar vujudga kelishi, vaqt o‘tishi bilan mutanosib ravishda o‘zgarishi kerakligi va buni tarihiy manbalar tasdiqlaganligini aytib o‘tildi. Shu bilan birgalikda, Kengash raisi oliy ta’limdagi korrupsiyani qoralab, uni xech qanday sabab bilan oqlab bo‘lmasligini va universitet faollari birinchi o‘rinda bu illat bilan kurash olib borish kerakligiga urg‘u berildi. Bu borada jamoatchilik kengashi a’zolari tomonidan o‘quv binolari, auditoriyalar va talabalar turar joylarida doimiy nazoratni o‘rnatish, professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasida korruption xolatlarni oldini olish, Fuqaro murojaatlari bilan ishlash kerakligi, Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatning pastligi va bu borada ham kengash a’zolariadolat o‘rnatishga ahamiyat berishlari muhimligi, buning uchun ta’lim muassasasiga sifatli professor-o‘qituvchilar va hodimlarni ishga qabul qilish shaffof bo‘lishi kerakligi; abiturientlarni qabuli jarayonida, talabalar bilimini baholash vaqtida shaffoflikni ta’minlash, professor-o‘qituvchilarni korrupsiya bilan kurashish bo‘yicha bilimdonligini oshirish muhimligi, Korruption holatlarni oldini olish bo‘yicha targ‘ibot ishlar olib borilishi maqsadga muvofiqligi haqida fikr bildirib o‘tdi. Yuqorida bildirilgan fikrlarni asos qilib Jamoatchilik Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish 2020 yil uchun “Yo‘l xaritasi”ni tuzish kerakligini va tahminiy namunadagi Jamoatchilik Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish “Yo‘l xaritasi” tuzilganligi, taklif va mulohazalar bo‘lsa Kengash a’zolari tomonidan bildirilishi maqsadga muvofiqligi aytib o‘tildi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinligi, jamoatchilik kengashlari tomonidan korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan ushbu tadbirlar yoshlarimizning huquqlarini va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlashga, jamiyat taraqqiyotiga bolta uradigan korrupsiya kabi illatni bartaraf etishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga oliy ta’lim muassasasini “korrupsiyadan holi hudud” bo‘lishiga olib keladi.

2.1. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda NNTlar roli.

Ta’sirchan jamoatchilik nazorati mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarga fuqarolarning ishonchini oshirish hamda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining qonuniy va oshkoraligini ta’minalashga, imkon yaratadi. Inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash, ularni himoya qilish davlatning burchidir. Nazorat funksiyasiga ega bo‘lgan davlat o‘z hokimiyati apparatining barqaror va mutanosib faoliyat yuritishini ta’minalaydi. Shu bois, nafaqat davlat ijtimoiy normalarni o‘rnatib, jamiyatni nazorat qiladi, balki jamiyat ham islohotlar jarayonida faol ishtirok etib, davlat hokimiyatini nazorat qiladi. Mazkur ikki xil nazoratning farqi shundaki, davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar davlat nomidan ish yuritadi va tegishli davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo‘ladi, jamoatchilik nazorati sub’ektlari esa jamoatchilik nomidan ish ko‘radi va uning manfaatlarini himoya qiladi.

Murojaatnomada Uchinchi Renessans yangi Uyg‘onish davri sifatida e’tirof etilgani beziz emas. O‘rta asrlar ikkinchi renessansda yashagan buyuk mutafakkirlar nafaqat ilmiy-nazariy jihatdan, balki ilmiy-amaliy jihatdan ham nazorat (jamoatchilik nazorati) masalalariga jiddiy yondashganlar ushbu mavzuga oid fikr mulohazalarni o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tganlar. Masalan, Amir Temur hukmdor sifatida, Abu Ali ibn Sino vazirlik mansabida, o‘z odatiga ko‘ra, chin sadoqat va mas’uliyat bilan ishga yondashgan holda moliya devoni ishlarining taftishi davomida turli suiiste’molliklarga chek qo‘ydi. Natijada, saroy atrofida o‘ralashgan ba’zi kimsalarning jinoiy qilmishlari – fosh bo‘ldi. Ular o‘z jinoyatlariga yarasha jazolandilar.

Qadimda Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining mukammal jamiyat va davlat barpo etish haqidagi g‘oyalari diqqatga sazovor. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy siyosiy ta’limotida huquqiy faoliyatining asosiy mazmuni mukammal (fazilatli) jamiyat va shahar-davlat barpo etish haqidagi qarashlari bilan bog‘liq. Forobiy tasavvuridagi mukammal jamiyat va davlatning oliy maqsadi insonlarni tom ma’noda baxt-saodatga erishuvi yo‘lidagi vazifalaridan kelib chiqadi. Shu bois, uning fikricha, barkamol shaharlar – fazilatli, mukammal ijtimoiy uyushma; o‘rta asr real voqeligidagi shaharlar esa – u yoki bu darajada johillik xususiyatlarini

o‘zida mujassam etgan “kichik jamiyat” bo‘lib, agarda shahar – davlat oqillik hamda ijtimoiy rivojlanishning zaruriy va haqiqiy qonunlarini anglashga asoslangan ekan, uni, albatta, takomillashtirish va fozil jamiyat, shahar – davlat bilan almashtirish zarur, deb hisoblaydi.

Prezidentimizning 2020 yil 29 dekabrdgia Oliy Majlisga va xalqiga qilgan Murojaatnomasida jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanishi bunga e’tibor bergan holda, taklif va tavsiyalar ko‘rsatishi bejiz emas. Zero, jamoatchilik nazorati bo‘lmagan yoki jamoatchilik nazorati yetarli darajada kuchga ega bo‘lmagan mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishini ham tasavvur qilish qiyin. Jamoatchilik nazoratini tashkil qilish masalalari haqida tushuncha hosil qilishdan avval “jamoatchilik nazorati” tushunchasini unga turdosh tushunchalari bilan umumiyl jihatlari va tafovutlarini aniqlab olish lozim.

Hozirgi kunda qonunchilik va ommaviy axborot vositalarida – jamoatchilik nazorati, ijtimoiy nazorat, fuqarolik nazorati kabi atamalar ishlatalmoqda. Mazkur atamalar ko‘pincha sinonim sifatida ba’zan noo‘rin qo‘llanmoqda. Fuqarolik nazoratini hech bir jamoat birlashmasiga a’zo bo‘lmagan fuqaro ham amalga oshirishi mumkin. Jamoatchilik nazoratini esa alohida fuqarolar emas, jamoat birlashmalari va ularning vakillari amalga oshiradi.

Jamoatchilik nazoratida – bu jarayonga emas, ko‘proq natijaga e’tibor, bu natija qonun ustuvorligini ta’minlangan holda amalga oshirilishi darkor.

Jamoatchilik nazorati – jamoat nazorati rivojlangan fuqarolik jamiyati ko‘rsatkichi sifatida demokratik va huquqiy davlatning zaruriy hususiyati bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hodisa sifatida fuqarolarning o‘z huquq va manfaatlarini mustaqil himoya qilishiga qaratilgan faoliyat.

Murojaatnomada aynan shu faoliyatga ya’ni jamoatchilik nazoratini ta’minalashda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni, eng avvalo, ta’lim, madaniyat, tibbiyat, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo‘jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish kabi muammoli sohalarda keng joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ishlarni tashkil etish uchun 2021 yilda budjetdan 60 milliard so‘m yo‘naltirilishi ijobiy holdir.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Binobarin, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo‘lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o‘z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Murojaatnomada ta'kidlanganidek, rahbarlarning xalq tomonidan nazorat qilinishi siyosiy barqarorlik va davlat taraqqiyotining omili ekanligi to‘g‘risidagi g‘oya Arastuning tadqiqotlarida ham uchraydi. Davlatni fuqarolar, davlat hamda mansabdorlar ittifoqi sifatida talqin qilgan Sh.Monteske uning hukumatsiz mavjud bo‘la olmasligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, qonunlar fuqarolarning hukumat faoliyatini nazorat qilishiga imkon yaratadi. Murojaatnomada ta'kidlanganidek, mavjud muammolarni aniqlash, ularni puxta o‘rganish va yetuk mutaxassislarini jalg qilgan holda ishning ijobiy natijasini ko‘rsatish muhim.

Ayniqsa, mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo‘yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalg etiladi.

Shavkat MIRZIYoEV

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek: “Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinishi va davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rishlari belgilangan bo‘lib, bu konstitutsiyaviy normalar, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita amal qilishi tartibini ham belgilaydi”.

Jamoatchilik nazoratining sub’ekti: mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar, partiylar va boshqa jamoat tashkilotlaridan iborat bo‘lib, ularning soni bugungi kunda **9000 dan** ziyodni tashkil etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, jamoat tashkilotlari jamoatchilik nazoratini amalga oshirish asnosida xalq va davlat o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tamoqda.

Bugungi kunda jamoat tashkilotlari o‘rtasida yoshlar, blogerlar, mahalla, xotin-qizlar mutanosib ketma-ketlikda o‘zining ijtimoiy qamrovi bo‘yicha ijtimoiy faoliyot ko‘rsatkichlari yuqori, deb hisoblanmoqda.

Konstitutsiyaning 18-moddasiga muvofiq: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”. Mazkur normada inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita amal qiladi va ular qonunlarni qo‘llash, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatining faoliyati mazmun-mohiyatini

Shavkat MIRZIYoEV

Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etishni taklif qilaman. Ushbu vakil quyi palata yig‘ilishlarida ishtirok etish, qabul qilinayotgan qonunlarga ta’sirchan jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik masalalarini kiritish bo‘yicha takliflar berish vakolatiga ega bo‘lishi zarur, deb hisoblayman.

belgilaydi va sud tomonidan ta'minlanadi, negaki, fuqarolik jamiyati (institutlari) jamiyat va davlat o'rtasidagi qayta aloqalarsiz faoliyat yuritishi mumkin emas, bu prinsip jamoatchilik nazoratining tegishli huquqiy mexanizmlari va uning sub'ektlari faoliyatining mustaqilligini belgilaydi.

Murojaatnomada O'zbekistonning hozirgi bosqichdagi milliy taraqqiyot andozasiga, strategik maqsadlariga, tadrijiy-islohiy siyosatiga mos keluvchi davlat boshqaruvi va hokimiyat institutlarining rivojlanishi uchun zamon talabiga mos, yangi tendensiya asnosida, optimal faoliyatlarini tatbiq etishga qartilgan xususan vakili institutini joriy etish yuzasidan takliflar berilgan. Masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida NNT doimiy

Konstitutsiyaning 32-moddasida: "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonunlarda belgilangan talablarning bajarilishi ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mahalliy davlat boshqaruvida ta'sirchan jamoatchilik nazorati - davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmiga organik "ichki" element bo'lib, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish muhim omillardan biri bo'lib, aholining ijodiy faol fuqarolik salohiyatini amalga oshirish uchun oqilona tuzilgan tizim orqali barcha zarur vositalar va jamiyat ustidan davlatning maqsadli ta'sirini hamda nazoratini ta'minlaydi.

Yuqorida Bosh qomusimizga murojaat qilganimizdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, erkin va ob'ektiv ommaviy axborot vositalari, avvalgidek, mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda faol ishtirok etadilar.

Germaniyada jamoatchilik nazorati ob'ektlari: davlat organlari, jamoat tashkilotlari, jamoalar va ularning assosiasiyalari, ilmiy muassasalar, markaziy ilmiy tashkilotlar, maktablar, davlat organlari sifatida faoliyat yuritadigan xususiy

Oliy Majlis palatalari, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz qyinoqlarning oldini olish bo'yicha Ombudsman vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuzasidan ikki oy muddatda o'z takliflarini ishlab chiqishi zarur. Bunda Ombudsman tomonidan har chorakda jamoatchilik vakillari bilan birlgilikda tergov izolyatori va jazoni o'tash muassasalariga "monitoring tashriflari" tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.

Sh.M. MIRZIYoEV

yuridik institutlar faoliyati hisoblanadi. Fransiyada davlat boshqaruvi sudlar, banklar va hokazolarga bo'ysunishi mumkin. Qo'shma Shtatlarda fuqarolik nazorati instituti politsiya faoliyatiga nisbatan qo'llaniladi. Hozirgi kunda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati faoliyati bunga namuna

sifatida e'tirof etib o'tilishi ijobjiy. Murojaatnomada O'zbekiston Respublikasidagi Inson huquqlari bo'yicha milliy markazning qyynoqlarni oldini olish bo'yicha Ombudsman vakolatlarini kengaytirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga doir takliflar ishlab chiqishi lozimligi qayd etildi.

Jamoatchilik nazorati ijtimoiy hamkorlikning asosiy vositasi hisoblanadi. U ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish uchun xulq-atvor, insonlararo munosabatlar va tartib-intizomni nazorat qiladi. Har bir kishi jamiyatda yashar ekan, mavjud qoidalar va qadriyatlarga bo'ysunishi, me'yorlarga amal qilishga majbur. Aynan shu me'yorlarga amal qilish uchun jamoatchilik nazorati zarur, bu ijtimoiylashuvni keltirib chiqarib, ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtiradi va jamiyatda birlikni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Jamiyatda me'yorlarning amal qilishi uning a'zolari tomonidan qabul qilinganini anglatadi. Ularga amal qilmaganlarni jamoatchilik nazorati aniqlaydi va javobgarlikka tortadi.

O'zbekiston Respublikasida Jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyatni institutlarining davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining normativ-huquqiy standartlarga mos, muvofiqligini tekshirish va aniqlangan huquqbuzilishlarni (tegishli davlat organlariga murojaat qilish orqali) tuzatish maqsadidagi tizimli faoliyatidir, ushbu ta'rifni e'tiborga olgan holda aniq faoliyat mexanizmi, ya'ni Jamoatchilik kengashi orqali amalga oshirilishi muhimligini ham qayd o'tib o'tish zarurligi – davr talabi.

2.3. Jamoatchilik nazoratining yangi va samarali mexanizmlarini amaliyatga joriy etish.

Bugungi tub yangilanishlarning siyosiy-huquqiy va g'oyaviy asosini shubhasiz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli Farmon³⁷ asosida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi tashkil etadi. Ushbu amaliy dasturning beshinchi ustuvor yo'nalishida "davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan samarali hamkorligini tashkil etish" masalasi alohida ko'rsatilgan.

Mazkur huquqiy asosga tayangan holda O'zbekistonda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik bundan keyin ham yuksalib borishi Prezidentimizning 2017 yil 22 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida yana bir bor e'tirof etildi.

Murojaatnomada Sh.Mirziyoev tomonidan quyidagi muhim tashabbus ilgari surildi: "barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etishni taklif qilaman. Mazkur jamoatchilik kengashlari davlat

³⁷ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 13 fevral, 6-son, 70-modda.

organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog'laydigan ko'prik vazifasini bajarishi lozim”³⁸.

Davlatimiz rahbari barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etishni taklif etar ekan, ushbu taklif nafaqat yangicha yondashuv, balki demokratlashtirish jarayonlari zamonaviy tajribasidan kelib chiqmoqda.

Darhaqiqat, barcha darajadagi davlat organlari, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari qoshida jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi oliy ta'lim massasalarida faoliyat olib borayotgan jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab berdi:

- Ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish;
- Oliy ta'lim muassasalariga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo'yicha tavsiyalar berish;
- Talabalarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlар o'tkazish;
- Oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va muassasaning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish.

Shuningdek, 2017 yil 30 iyunda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi" tashkil etildi. Ushbu Jamoatchilik kengashi O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish samaradorligini, mazkur sohada ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish, ilm-fanning ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash borasida ilmiy, madaniy, ta'lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish kabi masalalar yuzasidan davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini ta'minlash yuklatilgan³⁹.

2017 yil iyulida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi **Davlat test markazi** faoliyatini ochiq va oshkoraligni ta'minlash maqsadida uning qoshida jamoatchilik kengashi tuzildi⁴⁰. Bu ham davlatimiz rahbariyatining oliy ta'lim rivojlanishi tug'risida g'amhurligidan dalolatdir.

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 y. 22 dekabr // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti – www.president.uz.

³⁹ Qarang: "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017 yil 3 iyul, 26-son, 583-modda.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to'g'risida Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2017 y. 17 iyuldagagi qaroriga ilova // O'zbekiston Respublikasi onun hujjatlari Milliy bazasining veb-sayti – www.lex.uz.

Hozirgi kunga qadar, mamlakatimizdagi davlat organlari qoshida jamoatchilik kengashlarini tashkil etish borasida muayyan tajriba mavjud. Xususan, 2012 yilda Mudofaa vazirligi faoliyatida oshkoraliq va ochiqlikni ta'minlash, fuqarolar va jamoatchilikning mudofaa va harbiy sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosatida ishtirokini ta'minlash, harbiy xizmatning nufuzini ko'tarish, harbiy xizmatni o'tayotganlar va chaqiriluvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ko'maklashish maqsadida Jamoatchilik kengashi tashkil etilgan edi⁴¹. Ushbu Kengash mudofaa sohasidagi huquqiy hujjatlarni jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish, xarbiy xizmatchilarni, ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, jamoat birlashmalari va Mudofaa vazirligi o'rtasidagi hamkorlikni mustaxkamlash borasida ish olib bormoqda.

Ma'lumki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida **davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash**, jismoniy va yuridik shaxslarga ularning qonuniy huquq va erkinliklariga daxldor axborotlarni taqdim etishning zamonaviy shakllarini joriy etish davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

2016-2018 yy. har bir yarim yillikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etilgan **Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari (DHvaBO) faoliyatining ochiqligi monitoringini olib borish va uni baholash jamoatchilik kengashi** davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining natijalarini e'lon qiladi⁴².

Hukumatning qarori bilan milliy madaniy markazlar, do'stlik jamiyatları, ijodiy uyushmalar, davlat tashkilotları va nodavlat notiyorat tashkilotlarning faoliyatini idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi huzurida Jamoatchilik kengashi** tashkil etildi. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi: qo'mitaning nodavlat notiyorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor faoliyatining eng muhim masalalari yuzasidan jamoatchilik fikrining tizimli monitoringi olib borilishini va har tomonlama tahlil qilinishini amalga oshirish; Qo'mita faoliyatiga doir normativ-

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 y. 24 oktabr "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori // "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi"ning veb-sayti - www.lex.uz.

⁴² Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish bo'yicha jamoatchilik kengashi, davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish jarayonlariga ko'maklashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 y. 6 noyabrdagi Qarori asosida tashkil etilgan. Bu tug'rida jurnal ushbu sonining alohida maqolasini tanishing.

huquqiy hujjatlarni, shuningdek ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, ularning Qo‘mita xodimlari o‘rtasida muhokamasini tashkil qilishda ishtirok etish va b⁴³.

Jamoat tartibini saqlash, avvalambor, voyaga yetmagan va yoshlar o‘rtasidagi huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg‘unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash bo‘yicha yakdil harakatlarni, ularni hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta’minlash maqsadida Toshkent shahrining tumanlarida **huquqbazarliklar profilaktikasi, tadbirkorlikni rivojlantirish va muammoli oilalar bilan ishlash ustidan nazorat qilish jamoatchilik kengashlari** tuzildi. Kengash tarkibi Toshkent shahri tumani Xalq deputatlari Kengashi deputati raisligida mahalla faollari, mehnat faxriylari, fan, madaniyat va san’at vakillari, mashhur sportchilar va boshqa jamoatchilik vakillari hisobidan shakllantirildi. Kengash mahallalar va Toshkent shahri tumani Xalq deputati Kengashi deputati soniga mutanosib ravishda sektorlarga biriktirildi⁴⁴.

2017 y. ohirida O‘zbekiston eng yangi tarixida ilk bor **mahalliy hokimiyat huzurida Jamoatchilik kengashi** tashkil etildi. Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek tuman hokimiyatining Jamoatchilik Kengashi hokimiyatga tumanni rivojlantirish masalalari bo‘yida maslahat berish bilan shug‘ullanadi. Yangi tashkil qilingan Jamoatchilik kengashi 21 kishidan iborat bo‘ldi. Hokimimiyat Kengash faoliyatiga xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, biznes, fan, madaniyat va yoshlar bilan ishlash sohlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan mutaxassilarni taklif qildi.

Yuqorida misollardan ko‘rinib turibdiki, davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlarini tashkil etish taklifi zamonaviy demokratlashtirish jarayonlari tajribasidan kelib chiqmoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud⁴⁵. Bu kabi demokratik institutlar turli ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishda, davlat va hududiy dasturlar ijrosini ta’minlashda, aholi turli qatlamlari manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etmoqda. Bu o‘z navbatida, fuqarolik jamiyatni institutlarining davlat organlari bilan hamkorligini yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Barcha davlat organlari qoshida jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi,

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 y. 25 dekabr “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalari qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi onun hujjatlari Milliy bazasining veb-sayti – www.lex.uz.

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 y. 14 fevral “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi onun hujjatlari Milliy bazasining veb-sayti – www.lex.uz.

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 y. 22 dekabr // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti – www.president.uz.

ushbu organlar faoliyati yo‘nalishiga yaqin sohada faoliyat olib boradigan nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq ho‘jaligi vazirligida tashkil etiladigan bunday jamoatchilik kengashi – fermerlik sohasidagi jamoat tashkilotlari uchun muhim hamkorlik vositasiga aylanadi. Yoki, bunday jamoatchilik kengashi O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi qoshida tashkil etilsa, inson huquqlari va qonun ustuvorligi ta’minalashni maqsad qilgan jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari yanada mustahkamlanadi.

Yana bir muhim masala, davlat organlari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari nafaqat markazda, balki hududlarda ham tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, davlat organlarining hududiy bo‘linmalari faoliyatidagi qonun ustuvorligi ta’minalash masalasi, ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish alohida ahamiyatga ega.

Ushbu masalaning dolzarbliji hisobga olinib, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 2018 yil – «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga ham kiritildi. Xususan, Davlat dasturining 30-bandida: “Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini ta’minalash maqsadida barcha davlat organlarida jamoatchilik kengashlarini tashkil etish” vazifasi o‘z aksini topgan.

Unda mazkur Jamoatchilik kengashlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratilishi, ularda davlat organlarida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlarini tashkil etish; davlat organlari faoliyatining yanada xalqchil va demokratik bo‘lishini ta’minalash choralar; davlat organlariga fuqarolik jamiyati institutlaridan kelib tushgan loyihalarni ko‘rib chiqish, umumlashtirish va ularni baholash, jismoniy va yuridik shaxslar – murojaat etuvchilarni eshitishda ishtirok etish; davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash vazifalari nazarda tutildi⁴⁶.

Umuman, barcha darajadagi davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi, davlat va nodavlat sektori o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada kuchaytirishga, u orqali aholini tashvishga solayotgan muammolarni tizimli o‘rganish va hal etishga, davlat organlari faoliyati ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish orqali inson huquq va erkinliklarini ta’minalashda ijobiy natijalarga erishishga zamin yaratadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat organlari, ularning mansabdor

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 2018 yil – «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi // “O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi”ning veb-sayti - www.lex.uz.

shaxslari faoliyati ustidan ijtimoiy hayotda adolat va qonuniylik ta'minlanishi, inson huquq va erkinliklari ruyobga chiqarilishi borasida, jamiyat manfaatlari muhofazalanishi yuzasidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati ham davlat nazorati kabi keng ko'lamli tarzda shakllantirilishi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, fuqarolik jamiyatining muhim xususiyati uning davlat organlari faoliyatini samarali nazorat qila olishidadir. Fuqarolik jamiyatida davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati uning institutlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish – davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning ishonchli mexanizmi sifatida maydonga chiqadi. Shu munosabat bilan fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan bo'lmish "jamoatchilik nazorati" tushunchasiga to'g'ri yuridik ta'rif berilishi amaliy va nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega masaladir. Chunki "jamoatchilik nazorati" tushunchasiga xorijiy va milliy yuridik adabiyotlarda berilgan ta'riflarda olimlar yakdil fikrda emas. Bu borada muayyan bir yondashuvni shakllantirish uchun o'quv va ilmiy adabiyotlarda jamoatchilik nazorati tushunchasi qay tarzda talqin etilishi borasida e'tibor qaratish zarur. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida, jamoatchilik nazorati – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (institutlari), shuningdek davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat, deb qayd etilgan. R.Hakimovning fikricha, jamoatchilik nazorati kuchli fuqarolik jamiyatining ajralmas belgilardan bo'lib, fuqarolik jamiyati institutlari, keng jamoatchilik tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslar faoliyatini qonunga muvofiqlik nuqtai nazaridan muntazam nazorat qilishni anglatadi.

O'z navbatida, fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda quyidagi bir qator vazifalari mavjud: davlat siyosatini shakllantirishda davlat hokimiyati organlari va boshqaruv – faoliyatining ochiqligini ta'minlash; davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda fuqarolarning huquqlari – va qonuniy manfaatlarini hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilish; jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan muammolarni va davlatning rivojlanishi uchun – keng ommaviy muhokama shakllari mexanizmini ishlab chiqish, rivojlantirishdan iborat.

Bugungi kunga kelib hududlarda tashkil etilayotgan oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini tanlash va faoliyatini tashkil etishda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samarali qo'llash va ijtimoiy-o'quv jarayonda bu vositalardan

keng foydalanish o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsata boshladi.

2.4. OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar keng ko‘lamliligi bilan ajralib turadi va hozirgi kunda esa o‘quv jarayonida ta’lim sifatini keskin oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda uzlusiz ta’lim ta’lim tizimini isloh qilish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dagi vazifalarni bosqichma-bosqich hayotga tadbiq etish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan-shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta’lim, fan ishlab chikarishga yo‘naltirilganligi ta’limning kelajakdagi asosiy asosiy maqsadlarini belgilab beradi. Ta’lim sifati ta’lim tizimi va jamoatchilik nazoratini talablarining real erishish mumkin bo‘lgan natijalari bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham oliy talim muassasalarida samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish murakkab jarayonlardan biri hisoblanib, oliy ta’lim muassasalarida o‘tilayotgan fanlarning nazariy yoki amaliy xususiyatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, doimo o‘zgarish va yangilanishda bo‘ladi⁴⁷.

Ta’limni modernizatsiya va isloh qilish jarayonlari oliy ta’lim tizimida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu yerda dars berish jarayonida yangi texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish maqsadida doimiy ravishda joriy etiladi. Bu jarayonda oliy ta’lim sifatini ta’minalash jarayonlariga ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish muhim ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Shuni ta’kidlash joizki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayondir.

Shu tufayli yurtimizda Oliy ta’lim muassalari jamoatchilik nazoratini tashkil etish samaradorligini oshirishda, ehtiyojini iqtisodiy ta’minalashga ajratilgan mablag‘lar miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Ta’limda samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish qat’iy nazoratga olinmasa, oliy ta’lim muassasasining o‘quv jarayonida ma’lum muammolar kelib chiqishi mumkin.

Shuning uchun ta’limda samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etishda o‘quv jarayoni bilan bog‘liq omillarni e’tibordan chetda qoldirmaslik jamoatchilik nazoratining samarali ishlashini ta’minalaydi. Ta’lim muassasasida samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etishga moslashgan boshqaruv va uzlusiz o‘quv

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” Konsepsiysi.

tizimiga ega bo‘lish hamda boshqaruvni miqdordan sifat darajasiga o‘tishni talab etadi

Rivojlangan davlatlar tajribasida NNTlarining OTM bilan jamoatchilik kengashi sohasidagi hamkorlikdagi faoliyatini respublikamiz ta’lim tizimiga tatbiq etishda bu manbara ijodiy, tanqidiy yondashib, milliy mental xususiyatlarni e’tiborga olgan ishlab chiqilgan amaliyot modeliga ehtiyoj mavjud va bu model ijtimoiy hamkorlik hamda ijtimoiy sherikchilik tamoyillari asosida shakllantirilishi zarur.

Respublikamizdagi oliy o‘quv yurtlarida xorijiy oliy ta’lim muassasalaridagi kabi jamoatchilik kengashlari samarali ishlay boshlasa, muassasaning avtonom ishslash tamoyilini maydonga keltiradi, uning rivojlanishi, mutaxassisliklarni tanlash, ishlab chiqarish hamda fan integratsiyasini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini oshiradi.

Oliy ta’lim tizimida jamoatchilik nazoratini joriy etish va samaradorligini oshirishda ana’naviy va noana’naviy usullar asosida darslarni tashkil etish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri sifatida baholanmoqda va jarayonni tashkil etish talaba – professor-o‘qituvchi – OTM ijtimoiy hamkorligi mexanizmining rivojlantirishda dolzarblik kasb etadi.

Oliy taa’lim tizimin boshqarishning yangi mexanizmi, ta’lim sohasida axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, texnologik innovatsiyalarni o‘zlashtirish quyidagilarga imkon beradi: ta’lim mahsulotlari va xizmatlari iste’molchilari ko‘payadi; turli ta’lim muassasalari o‘rtasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha sog‘lom raqobat muhiti yaratiladi va rivojlantiriladi; ularning iste’molchilar uchun kurashishi kuchayadi; o‘qitishning yangi shakllari hamda oliy ta’limni rivojlanishi jarayonida ta’lim mahsulotlari va xizmatlarini taklif etish ortadi va natijada ta’limda ijtimoiy transformatsiyalashuv jarayoni amalga oshadi.

Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari ko‘rsatkichlarining xususiyatlari mos holda, ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish bugungi kunning talabiga aylandi.

Oliy ta’lim muassasalari o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etishda oliy ta’lim muassasasi ichki jamoatchilik kengashi faoliyatini tizimli ravishda takomillashtirib borish, integraktiv usulda tashkil etish nafaqat professor-o‘qituvchilarga, qolaversa, o‘quv jarayoniga ham ta’sir kuchiga ega bo‘ladi.

Jamoatchilik nazoratining samarali bo‘lishi uning sub’ektlari tomonidan ilgari surilgan takliflar, tashabbuslar yoki so‘rovlari kelajakda mazkur masala o‘z

yechimini topishda, qaysidir ma’noda huquqiy ta’sir choralarining ko‘rilishi, uning yuqori darajadagi ifodasi sifatida esa aynan oliy ta’lim muassasalari faoliyati misolida ham tegishli chora-tadbirlarni amal oshirish yuzasidan qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishiga olib kelishi, natijada OTMlarning sifat va samarali mexanizmga aylanishiga erishishi bilan ifodalanadi.

Hozirda kelib mamlakatimizda jamoatchilik nazorati nazariyasiga mansub mavjud manbalarni aniqlash, zamonaviy davlatlardagi jamoatchilk nazorati mohiyati va ijitmoiy ahamiyatini, mazmuni va xususiyatlarini o‘rganish hamda ifodalash orqali O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini takomillashtirishga yetrali zamin yaratilganligi bevosita oliy ta’lim muassasalari faoliyatini zamonaviy ruhda tashkil etishda muhim amaliy va nazariy komponentnlarni yaratib berayotganligi ma’lum bo‘lmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik kengashlari faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, standartlashtirish tarmoq va tarmoqlararo darajalarning zaruriy bog‘lanishini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarin zamonaviy tizimni rivojlantirishga va tizimda ichki lokal va integratsion platformani tashkil etishda samarali usul hisoblanadi.

OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- NNTlarining oliy ta’lim muassasasidagi jamoatchilik kengashi samaradorligini oshirishga ta’siri, mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimida o‘ziga xos jihatlarini ommalashtirishda amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirishda NNTlari imkoniyatidan unumli foydalanish, talaba-yoshlar o‘rtasida mazkur tashkilotlar bilan hamkorlikda jamoatchilik kengashi samaradorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

- Professor-o‘qituvchilar bilan talabalar o‘rtasidagi byurokratik omillarni bartaraf etish, baholash mezonlaridagi shaffoflikni kuchaytirish, talabalar bilimini baholashdaadolatni ta’minlash;

- Kafedralar va fakultetlarning yillik hisobotlarini rektorat tomonidan ko‘rib chikishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- Universitet professor-o‘qituvchilarini va xodimlarini ijtimoiy himoyalash va ularga mukofotlar belgilashda ijtimoiyadolat tamoyillariga rioya etilishi, mukofotlanishda shaxsning o‘z xizmat vazifalarini halol va vijdonan bajarilishini, jamoat ishlarida, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirokini hisobga olinishini hamda hammaga bir xil miqdorda mukofot berilishiga yo‘l qo‘ymaslik kabilarni nazorat etish hamda tavsiyalar berish;

- Abiturientlar va magistraturada ta’lim olish uchun talabgorlar hujjatlarini qabul qilish, barcha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish, ularning bilimini

baholash, o‘qishni ko‘chirish yoki qayta tiklash jarayonlarida suiste’molchilik holatlarining oldini olish, bu borada jamoatchilik kengashlarining rolini oshirish va shaffoflikni ta’minlash;

- Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va o‘quv faolitni tizimli tashkil etishda jamoatchilik nazoratining aniq shakllari va usullari ishlab chiqish.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda oliy ta’lim muassasalari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqalarini mustahkamlash, jamoatchilikka axborot taqdim etishning tezkor va zamonaviy shakllarini joriy etish;

- Oliy ta’lim tizimida pedagog kadrlarni ishga qabul qilish, lavozimlarga tanlov o‘tkazishdaadolat va ochiqlikni ta’minlash, o‘quv yili yakunlari bo‘yicha pedagog kadrlar faoliyatiga baho berish, bu borada jamoatchilik nazoratining yangi va samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etish;

- Joriy va oraliq baholashlarning jadval asosida o‘tkazilishi, jadvalga rioya qilmaslikning sabablari, joriy, oraliq baholashlarda talabalarga qo‘yilayotgan baholarning asoslanganligi, talabalarining joriy va oraliq baholashlarda yozgan yozma ishlari va bajargan topshiriqlarining odilona baholanganligi, bu ishlarning amalga oshirilishida professor- o‘qituvchilar tomonidan tanish-bilishchilikka yo‘l qo‘ymaslik, talabalar bilimini baholashga xolisona-odillik bilan yondashish kabi ishlarni o‘rganish va tahlil etish, tegishli xulosalar tayyorlash, tavsiyalar berish. Global pandemiya sharoitida barcha nazorat ishlari elektron bazaga o‘tkazilganligi, oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyani oldini olinishi, shaffoflikning ta’minlanishi;

- OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ularning ishlarida katta samara beradi, oshkorlik, shaffoflik ta’minlanishi bilan birga har bir talaba va professor-o‘qituvchilarning nazorati kuchayishi;

- Ichki inspeksiya bilan hamkorlikda kafedralarda professor- o‘qituvchilar tomonidan o‘zaro darsga kirish, ochiq o‘quv mashg‘ulotlarini, muammoli darslarni tashkil etish rejalarining talab darajasida bajarilishini tekshirish. Zaruriy hollarda tegishli mutaxassislar ishtirokida ishchi guruhlar tuzib, o‘quv mashg‘ulotlari sifatini o‘rganish, tavsiyalar berish;

- Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni samarali tashkil etish uchun davlat, nodavlat tashkilotlari hamda oliy ta’lim muassasalarining ijitmoiy hamkorligining huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish orqali ijtimoiy integratsiyalashuv platformasini ishlab chiqish.

- Jamoatchilik nazoratini ilmiy-nazariy tahlil etilishi hamda zamonaviy yo‘nalishlari tadqiq qilinishini oliy ta’lim muassasalarida ham keng o‘rganish va maqsadli dasturiy ba’zani yaratish.

- Oliy ta’lim muassasalarida jamoatchilik nazoratini shakllantirishning yangi yo‘nalishlari va istiqbollarini aniqlash maqsadida xalqaro hamda milliy doiradagi konferensiyalar va davra suhbatlarini tez-tez o‘tkazib turish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, OTMlarda jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishda keltirilgan taviyalar bajarilsagina katta natijadorlikka erishiladi. Oliy ta’lim muassasasining nufuzi ortib boradi, eng asosiysi bilimli mutaxassislar yetishib chiqadi va chet ellik talabalarning qiziqishi ortib, O‘zbekistonda o‘qish istagi paydo bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari nima?
2. Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkiliy jihatdan kim ta’minlaydi?
3. Jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom qachon tasdiqlangan?
4. Oliy ta’lim muassasalari huzurida jamoatchilik kengashlari tarkibini aniqlash va tasdiqlash tartibi haqida ma’lumot bering.
5. Oliy ta’lim muassasalari huzurida jamoatchilik kengashlari a’zolarining huquqlari haqida ma’lumot bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni. –T.: 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”– T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997 y., 9-soni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni 2014 yil 5 may O‘RQ-376 –soni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni .
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947 -sonli Farmoni. Toshkent “Adolat” 2017 y. www.lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3775-tonli qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 20.04.2017 yil № PQ-2909 - sonli Qarori

10. 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 2 fevraldagi PQ-2752-tonli Qarori

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 27 iyuldag'i № PQ 3151 – sonli Qarori

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 103-tonli qarori.

13. 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-tonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-tonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5185-tonli Farmoni // www.lex.uz.

16. 14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-tonli Qarori.

17. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. –B.488.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 30 dekabrdagi mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqidan.// Xalq so'zi, 2016 yil 31 dekabr.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1- MAVZU: OLIY TA'LIM TIZIMIDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI (2 soat)

Amaliy mashg'ulotda Strategik rejalashtirish - strategik menejmentning muhim vositasi sifatida. OTMlarda boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash. Strategik qarorlar samaradorligini baholashda tizimli tahlildan foydalanish kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Odatda strategik qarorlar uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lib, tashkilot hayoti va faoliyatining barcha tomonlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Strategik rejalashtirish - strategik menejmentning muhim vositasi hisoblanadi.

Strategik rejalashtirish, dastlab, xususiy sektorda keng tarqalgan bo'lib, doimo o'zgarib kelayotgan tashqi muhitga samarali javob qaytarish uchun, davlat sektorlari va notijorat tashkilotlarida qo'llanila boshlangan. Soha mutaxassislari tomonidan tuzilgan OTMlari uchun strategik rejalashtirish bir-biriga bog'liq bo'lgan uch bosqichdan iborat.

Ulardan **birinchi bosqichi** strategiyani aniqlash bo'lib, bu bosqichda strategik qaror qabul qilish uchun bir qator amallar bajarilishi kerak. Avvalo, strategik rejalashtirishning tarkibiy tushunchalariga kiruvchi madaniyat, qadriyat, munosabatlар, perspektiva(istiqbol), missiya, uzoq muddatli maqsad va vazifalar aniqlab olinishi zarur, chunki bunday tushunchalar turli jamiyatlarda turlicha bo'ladi. Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalariga keskin ta'sir etuvchi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, demografik kabi tashqi muhitlar baholanib olinishi muhim. Rahbariyat esa bu ta'sir kuchlariga samarali javob qaytarishning muqobil chora-tadbirlari ishlab chiqishlari kerak.

Uchinchidan esa, oliy ta'lim muassasalarining kelajakda o'z mavqeini saqlab qolish yoki ilg'orlashib ketishiga asos bo'luvchi o'zining kuchli va zaif tomonlari, ya'ni moliyaviy resursi, inson resurslari, akademik va ilmy salohiyati kabilarni baholab olishi lozim.

Shu kabi ichki va tashqi faktorlarning aniqlashtirib olinishi rahbariyat uchun oliy ta'lim muassasasining missiya va vazifalariga monand strategiyalarini aniqlab olish imkoniyatini beradi.

Strategiyalar OTMining asosiy yunalishlari hisoblangan o'qitish, ilmiy tadqiqot va talabalar masalalari bo'yicha belgilanadi. Chadvikning ta'kidlashicha, universitetlar o'zlarining ta'lim jarayonlari, o'qitish va o'rgatish, ilmiy tadqiqot kabi faoliyatlari bo'yicha sifatni oshirishga javobgarliklari oshib borarkan, akademik xodimlarning

ta'lim jarayonilarini yanada kengroq tushunib borishlari lozim bo'ladi

Strategik qaror – bunday turdag'i qarorlar ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etib, unda muassasaning uzoqqa mo'ljallangan rivojlanish vazifalari va maqsadlari belgilanadi. Strategik qarorlarni qabul qilishda ta'lim muassasasining istiqbolli harakat dasturi asos qilib olinadi.

Strategik qaror maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega. U yuqori boshqaruv organlari tomonidan tub va istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish maqsadlarida qabul qilinadi. Bunday dasturlarga:

- Xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish.
- Raqobat muhitini shakllantirish.
- Chuqur tarkibiy o'zgarishlarga erishish.
- Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish kabi dasturlar misol bo'la oladi.

Taktik qarorlar maqsadga erishishning vosita va usullari xususidagi joriy, tezkor qarorlardir. Masalan:

- Korxona, firmaning joriy rejalarini tuzish va joriy qilish.
- Kadrlar masalasini hal qilish va hk.

Mazkur qarorlar yuqori va o'rta bo'g'in rahbarlari tomonidan uzog'i bilan ikki yilgacha bo'lgan muddatga qabul qilinadi.

Umumiy qarorlar bir xil muammoga daxldor bo'lib, barcha bo'g'inlar uchun birdek amal qiladi. Masalan, ish kunining boshlanishi va tugashi, tushlik vaqt, ish haqini to'lash muddatlari va boshqa tanaffuslar.

Maxsus qarorlar tor doiradagi muammoga taalluqli bo'lib, korxonaning muayyan bir bo'limi yoki bir guruh xodimlari yuzasidan qabul qilinadi.

Stereotip qarorlar odatda qat'iy yo'riqnomalar, me'yoriy hujjatlar doirasida qabul qilinadi. Bunday qarorlar ba'zan kundalik, ba'zan masalalar bo'yicha qabul qilinadi, lekin o'zgarishlar asosan muddatlarga, ayrim sifat parametrlariga, ijrochilarga taalluqli bo'ladi.

Rahbar streetip qarorlarni odatda ortiqcha tayyorgarliksiz qabul qiladi. Xodimlarni ishga olish va ishdan bo'shatish, korxonaning faoliyatini risoladagidek boshqarish yuzasidan chiqarilgan buyruqlarni shunday qarorlar jumlasiga kiritish mumkin.

Tashabbusli qarorlar o'z tavsifiga ko'ra notovarlik mazmuniga ko'ra esa istiqbolni nazarda tutadigan qarorlardir. Bunday qarorlar vaziyatni sinchkovlik bilan bat afsil o'rganishni, maxsus kuzatuv materiallariga asoslanishni, maxsus hisob-kitoblarning amalga oshirilishini talab qiladi. Tashabbusli qarorlar erkin harakatga asoslanib qilinadi.

An'anaviy qarorlar - bu odatiy vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlardir. Ularning amal qilish doirasi oldindan ma'lumdir. Bunga, korxona yoki firmaning ishlab chiqarish dasturini qabul qilishga oid qilingan qarorlar misol bo'la oladi.

Tavsiyali qarorlar o‘z mohiyatiga ko‘ra tashabbusli qarorlarga yaqin bo‘lib, ularda korxona faoliyatini yaxshilash borasidagi tavsiyalar o‘z aksini topadi.

Aniq qarorlar to‘la-to‘kis axborot mavjud bo‘lgan holdagina qabul qilinadi. Shu sababli, bunday qarolarning amalga oshish ehtimolligi birga yaqin bo‘ladi.

Noaniq qarorlar - bu tavakkal bilan - to‘la bo‘lmagan axborotga asoslanib qilinadigan qarorlardir. Boshqacha qilib aytganda, bunday qarorlar kutiladigan natijaga baho berish imkoniyati bo‘lmagan hollarda tavakkal qilib qabul qilinadigan qarorlardir.

Tezkor (operativ) qaror kechiktirmay ijro etish uchun chiqariladi. Masalan, tabiiy ofat sodir bo‘lgan hollarda uni bartaraf qilish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar ana shunday qarorlar turkumiga kiradi.

Muntazam qarorlar belgilangan muddatlarda chiqariladi. Masalan, xo‘jalik faoliyati yakuniga doir qabul qilinadigan (dekada, oy, yil choragi, yarim yillik, to‘qqiz oylik va yillik) qarorlar shunday qarorlarga misol bo‘la oladi.

Qabul qilinadigan qarorlar tarkibida yakkaboshchilik va yakdillik asosida qabul qilinadigan qarorlar ham bo‘ladi. Ammo yakkaboshchilik asosidagi qarorlar ko‘p hollarda asosli tanqidga uchrab turadi. Sababi, rahbar yakkaboshchilikka asoslangan qarorni aksariyat hollarda o‘zini ko‘rsatish maqsadida qabul qiladi. Bunday rahbar faoliyatining 80-90 foiz buyruqbozlikka asoslangan bo‘ladi. Bu jamoada keskinlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Boshqaruv qarorlari jamoa fikriga tayangan holda qabul qilinmas ekan, boshqaruvchi bilan bo‘ysinuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, o‘zaro ishonchning yo‘qolishi, nizolarning kelib chiqishi muqarrardir.

Yakdillik ko‘pincha favqulorra ro‘y beradigan vaziyatlarda qaror qabul qilishda, shuningdek qarshilik ko‘rsatuvchi guruhlarda “Koalitsiyalar” bo‘lmagan hollarda yuzaga keladi.

Kollejallik(ko‘pchilik) tamoyili “koalitsiyalar”, ya’ni turli ittifoq yoki birlashmalar ro‘yrost ma’lum bo‘lib turgan vaziyatlarda, har xil fikrlar raqobat qiladigan hollarda amal qiladi. Shu sababli qaror qabul qilishda ovozberish yo‘liga o‘tiladi. Bunday hollarda qabul qilish uchun ko‘pchilikning ovoziga tayaniladi. Ko‘pchilik hollarda yarmidan ko‘p ovoz gohida prinsipial masalalar yuzasidan me’yor 2/3 deb tasdiqlanadi.

Konsensus tamoyili pur fikrlilik, ya’ni fikrlar plyuralizmi kuchaygan hamda axborot oqimi tobora kuchayib borgan hollarda qo‘llaniladi. O‘z mohiyati bilan: **Konsensus** – bu qarolarni ishlab chiqish jarayonida barcha baxsli masalalar va turli-tuman fikrlar yuzasidan bir bitimga kelish yoki kelishishdir.

Konsensusga o‘zaro fikr almashish va maslahat, shuningdek, ilgari surilayotgan muqobil masalalarni maqsadga muvofiqlashtirishning har xil

usullarini qo'llash yordamida erishiladi.

Strategiya – korxonaning resurslarini taqsimlash va nazorat qilish orqali belgilangan uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan amallarning umumlashtiruvchi majmuidir. Strategiyaga yagona ta'rif berish juda mushkul, chunki strategiya shu qadar ko'p qirraliki, unga salgina boshqa nuqtai-nazardan qaralsa ham uning mazmuni butunlay o'zgarib ketadi.

1. Strategiya – bu yakuniy natijaga erishish vositasi.
2. Strategiya tashkilotning barcha qismlarini yagona bir butunga birlashtiradi.
3. Strategiya tashkilotning barcha asosiy jixatlarini qamrab oladi.
4. Strategiya – bu tashkilotning uzoq muddatli rejasidir.
5. Strategiya tashkilot rejasining barcha qismlari moslashuvini ta'minlaydi.
6. Strategiya tashkilot faoliyatining quyidagi asosiy savollariga javob bera oladi: Bizning biznesimiz ertaga qanday bo'lishi lozim?; Bugungi kunda biznesimiz nimadan iborat?; Bizning mahsulotlarimiz, funksiyamiz, bozorimiz qanday?; Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun nimalar qilishimiz lozim?
7. Strategiya – bu tashkilotning kuchli va zaif tomonlarining tahlili, shuningdek, rivojlanish imkoniyatlari va to'siqlarni aniqlash natijasidir.
8. Strategiya – bu tashkilotning tashqi muhit o'zgarishlariga avvaldan rejulashtirilgan munosabatidir. Ma'lumki, strategiya tushunchasi yunoncha "strategia" so'zidan olingan bo'lib, sarkardalik ilmi yoki san'ati ma'nosini ifodalaydi. Hozirda strategiya tushunchasining zamonaviy ta'rifi qadimiylar ma'nosiga yaqin kelsada, alohida jihatlari tahlil qilinganda, ular orasida tafovut farqlanadi. Masalan, Kvin fikriga ko'ra strategiya quyidagicha bo'lishi lozim:
 1. Ishning pirovard natijasiga erishish uchun aniq maqsadlarni ifoda etish;
 2. Tashabbusni qo'llab- quvvatlash;
 3. Kerakli vaqtda va kerakli joyda asosiy kuchni yo'naltira olish;
 4. Minimal resurslar sarflab maksimal natijaga erishishni ta'minlash;
 5. Yo'nalgan boshqarmani ifodalash;
 6. To'g'ri faoliyat jadvalini tahlil qilish;
 7. Kafolatlangan resurslar bilan ta'min- 327 lash. Minsberg strategiya tushunchasini 5 ta "P" deb atalmish kombinatsiyasi orqali izohlaydi: a) strategiya – reja faoliyati; b) strategiya – to'siq, ya'ni o'z raqobatchilarini chalg'itishga yo'naltirilgan faoliyat; v) strategiya – faoliyat ketma-ketligi, ya'ni reja amalga oshmasligi mumkin, lekin faoliyat ketma-ketligi har qanday holda ham ta'minlanishi lozim; g) strategiya – atrof-muhitdagi holat, ya'ni atrofdagilar bilan aloqa; d) strategiya – istiqbol, ya'ni intilish lozim bo'lgan holatni ko'ra olish

Ko'nikmalarni amalda qo'llash vazifasi

i. Tinglovchilar 3 kishidan iborat kichik guruxlarga bo‘linadi. Gurux a’zolari o‘z-aro kelishgan xolda o‘zlari ishlagan biror tashkilotni tanlab, o’sha tashkilotning “missiya” sini va “maqsadlar” ini baxs-munozara qiladilar va qog‘ozga yozadilar.

(10-15 minut)

ii. So‘ngra guruxlar o‘zlarining tashkilotlariga yozilgan “missiya” va “maqsadlar” ini boshqa guruxga berishadi. Guruxlar o‘zaro fikr almashadilar va qo‘shni guruxlar yozgan “missiya” va “maqsadlar” ni tanqidiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qiladilar va xato va kamchiliklarini yozma ravishda to‘ldiradilar. Bu tahlilni tinglovchilar SMART asosida ko‘rib chiqadilar, pastda ko‘rsatilgan.

(15-20 minut)

S.M.A.R.T. Maqsadlar qo‘yish


- | | |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none"> ▪ Specific ▪ Measurable ▪ Attainable ▪ Realistic ▪ Timely | <ul style="list-style-type: none"> ▪ Аниқ ▪ Ўлчаса бўладиган ▪ Эришса бўладиган ▪ Реалистик ▪ Муддати белгиланган |
|---|--|

iii. So‘ngra har bir gurux qo‘shni guruxni yutuq va kamchiliklarini bayon etadi va ochiq munozaraga qo‘yadi.

(20-30 minut)

O‘qituvchiga eslatma:

Tinglovchilar yuqoridagi mashqni bajarishda yani menejment jarayonidagi rejalahsha qo‘yidagilarni inobatga olishlari mumkin:



3. Gurux mashqi va munozara

Tinglovchilar uch yoki to‘rt kishidan bo‘linib guruhlarni tashkil qilishadi. Qo‘yidagi sxemada keltirilgan qiziquvchi taraflar reja tuzishga qanday ta’sir etishadi va menejerlar bularni

qanday xisobga olishi kerakligini tinglovchilar o‘z guruxlarida munozara qiladilar va so‘ngida har bir gurux fikrini bayon etadi.



AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. OTMlarda strategik qarorlar qabul qilishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qiling.
2. OTMlarda strategik qarorlar samaradorligini baholang.
3. Oliy ta’lim jarayonini boshqarishda strategik qarorlar qabul qilish texnologiyalarini yoriting.

2- MAVZU: OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI. (2 SOAT)

Reja:

Amaliy mashg‘ulotda Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari. Davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlari, davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish. Jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshitushi, jamoatchilik monitoringi. Jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o‘rganish masalalari tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi Qonuni 2018 yil 12 aprelda qabul qilindi⁴⁸. Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi Qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 iyuldaggi PQ-3837-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organi

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi O‘RQ-474-son Qonuni. Toshkent. 2018 yil 12 prel

huzuridagi jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlandi.

Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi;
- jamoatchilik nazorati sub’ektlarining xolisligi va beg‘arazligi;
- jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi;
- jamoatchilik nazorati sub’ektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g‘ayriqonuniy ta’sir ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yilmasligi.

Jamoatchilik nazoratining shakllari qudagilardan iborat:

- davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar;
- davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o‘rganish;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.
- Jamoatchilik nazorati qonun hujjalariiga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Davlat organlari o‘zining ochiq hay’at majlislarida jamoatchilik nazorati sub’ektlari ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratadi.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilinishi bilan barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etildi. Mazkur jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog‘laydigan ko‘prik vazifasini bajaradi.

Davlat hokimiyati organlari tizimiga kiradigan davlat organlari, korxona, muassasa va turli tashkilotlar rahbarlarining mas’uliyatini oshirish hamda javobgarligini kuchaytirish – davlat hokimiyati faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazoratining pirovard maqsadi hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati natijasida davlat hokimiyati organi rahbarlari faoliyatidagi o‘zi bo‘larchilik, sansolarlik, loqaydlik kabi illatlar ochib tashlanadi va ularni bartaraf etish talab qilinadi. Demokratik davlatlarning tajribalaridan bizga ma’lumki, jamoatchilik nazoratining maqsadi davlat organlarining va mahalliy boshqaruvning samaradorligini kuchaytirish,

davlat siyosatini belgilash va amalga oshirishda mansabdor shaxslar tomonidan qonunga rioya qilish hamda fuqarolar, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari o‘zlarining faoliyatini samarali amalga oshirishlari uchun ko‘maklashishdan iboratdir.

Jamoatchilik nazorati haqida so‘z yuritganda, avvalo, uning konstitutsiyaviy asoslariga to‘xtalish joiz. Konstitutsiyamizning 32-moddasiga O‘zbekiston fuqarolarining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshirilishini nazarda tutuvchi norma kiritildi. Ushbu norma mamlakatimizda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning qonunchilik asoslarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Qayd etish joizki, demokratik tuzumga ega davlatda davlat va jamiyat hayotini boshqarishda keng jamoatchilikning ishtiroki talab etiladi. Davlat o‘z faoliyatini inson va uning huquqlariga rioya etishni ta’minlashga qaratadi⁴⁹. Shunday qilib, demokratik huquqiy davlat sari borayotgan har qanday davlatda davlat va fuqaro o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlarga asoslangan yuridik aloqadorlik mavjud bo‘ladi. Mazkur aloqalar turli demokratik shakl va usullar orqali amalga oshiriladi. Ushbu munosabatlar tizimida jamoatchilik nazorati muhim ahamiyat kasb etib, ayniqsa, so‘nggi yillarda uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Kezi kelganda aytish joizki, jamoatchilik sub’ektlarining qonun ijodkorligidagi ishtirokini qoniqarli, deb bo‘lmaydi. Bundan tashqari, uning qonunchilik asoslari ham talab darajasida shakllantirilmaganligi mazkur yo‘nalishdagi mavjud muammolardan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 2017 yil 12 iyul kuni parlament palatalari, siyosiy partiylar, O‘zbekiston ekologik harakati, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari faoliyatining tahlili hamda istiqboldagi vazifalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida qonun ijodkorligida ijtimoiy hamkorlikning muhim bir masalasiga to‘xtalib o‘tdilar. Ya’ni “Qonunlarni qabul qilishda jamoatchiligidimiz, saylovchilarning keng ishtiroki sezilmayapti. Qonunlar qabul qilinishi bilan xalqimizning og‘iri yengil bo‘ldimi, uning hayotidagi muammolar hal bo‘ldimi, degan savollar bilan, afsuski, hech kim qiziqmayapti. Shuning uchun ham qonunlarni qabul qilish jarayonida yangi tizim — aholi bilan muhokama qilish tizimini joriy etish lozim, deb hisoblayman”. Darhaqiqat, ushbu taklif ro‘yobi qonunchilikning yanada takomillashuviga va ushbu jarayonda jamoatchilik nazorati o‘rnatalishiga xizmat qilishi shubhasiz. Chunki keng jamoatchilikning qonun ijodkorligidan xabardor bo‘lishi va unda o‘z takliflari bilan ishtirok etishi

⁴⁹ Yuridik fanlar axborotnomasi-Вестник юридических наук-Review of Law Sciences 1 (2017) 46-50

quyidagi muhim haqiqatning ro‘yobiga xizmat qiladi: Birinchidan, qonun ijodkorlari qonunning amalga oshirilishi bilan bog‘liq ko‘plab ma’lumotlarni to‘plashga erishadi va ularni qonunlarni ijod qilishda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi; Ikkinchidan, fuqarolar qabul qilinayotgan qonunlar mazmuni bilan yaqindan tanishadi va ularga o‘z takliflarini bildiradilar. Shu orqali ular qonunlar yaratilishiga hissa qo‘shadilar. Uchinchidan, davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari o‘rtasida qonun ijodkorligi sohasida hamkorlikning ishonchli mexanizmi yaratiladi. Yuqorida bildirilgan tashabbusni jamoatchilik nazoratining qonun ijodkorligidagi ko‘rinishi deb baholasak, to‘g‘ri bo‘lar edi. Albatta, mazkur institut ham jamoatchilik nazoratining bir ko‘rinishi bo‘lib, ushbu yo‘nalishga oid qonunchilik yaratilishi bilan birga rivoj topadi. Qayd etish lozimki, mamlakatimizda bir qator jamoatchilik nazoratiga oid qonun hujjatlari qabul qilingan. Xususan, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasidan ma’lumki, jamoatchilik nazorati mamlakatda qonuniylikni mustahkamlashda va fuqarolarning faol pozitsiyasini namoyish etishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq uni tushunish va amalga oshirishning mexanizmi haqida turli yondashuv va qarashlar ham mavjud ekanligini ta’kidlash lozim.

Demokratik davlatlarning tajribalaridan bizga ma’lumki, jamoatchilik nazoratining maqsadi davlat organlarining va mahalliy boshqaruvning samaradorligini kuchaytirish, davlat siyosatini belgilash va amalga oshirishda mansabdor shaxslar tomonidan qonunga rioya qilish hamda fuqarolar, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari o‘zlarining faoliyatini samarali amalga oshirishlari uchun ko‘maklashishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi⁵⁰da O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta’lim kengashini tashkil etildi. Kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- professor-o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. PF-5847-son. Toshkent, 2019 yil 8 oktabr.

qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

- oliy ta’limni davlat tomonidan boshqarish tizimi samaradorligiga va professor-o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ular tomonidan ta’lim berishda qo‘llanilayotgan ta’lim-tarbiya usullarining ta’sirchanligiga xolisona baho berish;

- ta’lim berishda yuqori sifatni ta’minalash yuzasidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;

- oliy ta’lim muassasalari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va xolislikni ta’minalash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Kengashning faoliyati natijalari, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining hay’at majlisida yiliga kamida ikki marta Kengash a’zolari bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi, natijasi yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinadi;

Kengashga vazifalarini amalga oshirishda har tomonlama ko‘mak beradilar, so‘ralgan zarur ma’lumotlarni taqdim etib borishi belgilandi.

Buni muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan amalga oishirilayotgan islohotlarning asosiy mexanizmi sifatida ham ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Yurtboshimizning fikricha “Jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir.

Shuning uchun fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi, Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi kelgusi yilda har bir soha va tarmoq bo‘yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta’sirchan tizimini yaratishga bosh-qosh bo‘lishi va tashabbus ko‘rsatishi lozim.

Jamoatchilik nazorati, birinchi navbatda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, moliya, bank, ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xo‘jalik, energetika va transport sohalarida joriy etilishi zarur. Shuningdek, bozorlar va savdo majmularidagi mahsulotlar va xizmat ko‘rsatish sifati kabi masalalar ham

doimo jamoatchilik nazoratida bo‘lishi darkor.”

Shu ma’noda, *jamoatchilik nazorati* – fuqarolik jamiyatining ajralmas belgilaridan bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlari, *keng jamoatchilik tomonidan* davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatini qonunga muvofiqlik nuqtai nazaridan muntazam kuzatish va tekshirishni anglatadi. Mazkur nazorat, odatda, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatini tahlil qilish, bu boradagi jamoatchilik fikrini o‘rganish, shakllantirish va tegishlicha bayon qilish orqali amalga oshadi⁵¹.

G‘arb olimlarining qarashlarida jamoatchilik nazorati aksariyat hollarda biror-bir sohada amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi (ya’ni, individual yo‘nalish ajratib olinadi). Xususan, amerikalik sotsiolog Travis Xirski jamoatchilik nazoratini, asosan, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash nuqtai nazaridan talqin qiladi. Unga ko‘ra, ijtimoiy so‘rovlar jamoatchilik nazoratini shakllantiradi va aksilijs timoiy xarakterga ega bo‘lgan xatti-harakatlarni tartibga soladi.⁵²

Yana bir amerikalik mutaxassis Rut Benediktning fikricha: “Yakuniy jamoatchilik nazoratini kishilarning o‘zlariga tashlab qo‘yishning o‘zi kishilarga erkin hayot kechirishlari uchun kafolat bo‘la olmaydi. O‘zlarini erkin, demokratik jamiyatda his etayotgan, ammo kuchli yetakchi yoki qiroqla ega bo‘lgan jamiyatlar barcha fuqarolar uchun umumiyl bo‘lgan ba’zi erkinliklarni kafolatlashdek umumiyl xususiyatga ega⁵³”.

Ko‘pchilik G‘arb olimlarining ta’riflarida jamoatchilik nazorati ijtimoiy hamkorlikning asosiy vositasi hisoblanadi. U ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish uchun xulq-atvor, insonlararo munosabatlar va tartib-intizomni nazorat qiladi.

Har bir kishi jamiyatda yashar ekan, mavjud qoidalar va qadriyatlarga bo‘ysunish, me’yorlarga amal qilishga majbur. Aynan ana shu me’yorlarning amal qilishi uchun jamoatchilik nazorati zarur, bu ijtimoiylashuvni keltirib chiqarib, ijtimoiy munosabatlarni uyg‘unlashtiradi va jamiyatda birlikni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Jamiyatda me’yorlarning amal qilishi uning a’zolari tomonidan qabul qilinganligini anglatadi. Ularga amal qilmaganlarni jamoatchilik nazorati aniqlaydi va javobgarlikka tortadi.⁵⁴

Siyosatshunos J.J.Russoning tadqiqotlariga asoslanilsa, davlat va jamiyat o‘rtasidagi nazorat faqatgina o‘zaro kelishuv asosida amalga oshirilishi mumkin.

⁵¹ Qarang: Xakimov R. Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari. // Fuqarolik jamiyati”, 2010, №3, – B.5.

⁵² Hirschi, T. Causes of delinquency. New Brunswick, N.J.: Transaction Publishers. 2002

⁵³ Benedict, R. /An Anthropologist at Work. Part 4, (1959). From a paper “Primitive Freedom, written in 1942.

⁵⁴ Umar Farooq. What is Social Control Meaning Definition and Characteristics. [Studylecturenotes.Com](http://studylecturenotes.Com). Saturday, 10 March 2012.

Unga ko‘ra, “jamiyatda ijtimoiy birlikning shunday shaklini topish kerakki, u har bir a’zoning shaxsi hamda mulkini chegaralash va himoyalashga qodir, uning yordamida ommaga qo‘shilgan har bir kishi faqat o‘z-o‘ziga bo‘ysunishi va avvalgidek erkin bo‘lib qolishi kerak. Ijtimoiy kelishuv bajaradigan asosiy vazifa ana shundan iborat”.⁵⁵

G‘arbiy Yevropa va Skandinaviya mamlakatlarida, Qo‘shma Shtatlarda jamoatchilik nazorati, birinchi navbatda, davlat hokimiyatining shaffofligi va turli davlat institutlari va jamiyatning faol ishtiroki tamoyillariga asoslangan holda, uni amalga oshirish uchun juda keng vositadir.

Rossiya Federatsiyasida "jamoatchilik nazorati" tushunchasiga yeng yaqini Skandinaviya mamlakatlarida parlament jamoatchilik nazorati tushunchasidan kelib chiqadi: Finlyandiya, Norvegiya, Daniya davlatlarida ham xuddi shu tendensiyani ko‘rish mumkin.

Skandinaviya mamlakatlarida jamoatchilik nazorati muvaffaqiyatli xalqaro amaliyot davlat nazoratchi uning turli qarshisida butun jamiyat bo‘lishi kerak, deb taklif qiladi, tarvaqaylab muassasalari: biznes va kasaba uyushmalari, milliy, yoshlar va faxriylari, inson huquqlari va iste’mol tashkilotlari, davlat boshqaruvi turli sohalarda, shuningdek, jamoat tashkilotlari.

Rossiyalik soha mutaxassisni I.Ivanovna, “...jamoatchilik nazorati barcha muammolarni hal qila olmaydi, lekin bu ko‘plab muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratadi va davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligi va oshkorligini oshirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini shakllantirishning hal qiluvchi yo‘nalishi bo‘lib, uning ishtirokisiz demokratik, adolatli davlat qurish va iqtisodiyot va jamiyatni modernizatsiya qilishni amalga oshirish mumkin emas,” deydi.

Bundan tashqari, “jamiyatning hokimiyat ustidan nazorat o‘rnatishga qodirligi – fuqarolik jamiyatining belgisidir. Faqat huquqiy shaklga ega bo‘lgan nazoratgina hokimiyatni huquqqa bo‘ysundiradi va faqat fuqarolik jamiyati sharoitidagina davlat “huquqqa tobe” bo‘ladi va “huquqiy davlat” maqomiga ega bo‘ladi.”⁵⁶ Bunday fikrlar huquqiy davlatchilik barpo etayotgan O‘zbekiston Respublikasi uchun jamoatchilik nazorati to‘g‘risida qonun qabul qilish to‘g‘risidagi tashabbusning naqadar muhimligini namoyon etadi.

O‘zbekistonda demokratik islohotlarga asos bo‘layotgan davlat va jamiyatni modernizatsiyalashning yana bir o‘ziga xos yo‘li boshlandi.

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, Bosh Qomusimizning 32-moddasida

⁵⁵ Russo J.J. Ob obyestvennom dogovore. Traktaty / Per. s fr. –M.: "KANON-press", "Kuchkovo pole", 1998. – S. 416.

⁵⁶ Luchin V.O. Konstitutsionnyy stroy Rossii: osnovnye politiko-pravovye xarakteristiki // Pravo i politika. 2006. №10. – S. 27–31.

fugorolik jamiyatida jamoatchilik nazorati “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi”⁵⁷ tarzida huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham erkin fugorolik jamiyatida davlat boshqaruvi organlari va aholi orasidagi muloqot shakllari xususida so‘z borar ekan, fugorolik jamiyatida “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, ularning fugorolik jamiyati institatlari, ya’ni nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan hamkorligini yanada mustahkamlash, bu hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini yaratish, ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish”⁵⁸ zarurligi alohida qayd etib o‘tilgan.

Jamoatchilik nazoratining o‘ziga xos jihatlari ham mavjud:

birinchidan, jamoatchilik nazorati jamiyat a’zolarining manfaatlari va ehtiyojlarini umumiy ijtimoiy irodaga jipslashtirgan holda jamiyat yoki uning alohida institutlariga ta’sir ko‘rsatish shakli sifatida namoyon bo‘ladi;

ikkinchidan, jamoatchilik nazorati turli ijtimoiy guruqlar manfaatini muvozanatlash va bu manfaatlarning o‘zaro to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslikning asosiy vositasi hisoblanadi;

uchinchidan, eng dolzarb masalalarni hal etishda jamiyatning istak va intilishlarini birlashtirish hamda muvofiqlashtirishning usuli hisoblanadi;

to‘rtinchidan, jamoatchilik nazorati ijtimoiy me’yorlarning bajarilishini kafolatlaydi, qonunbuzarliklarni aniqlab, ularni qoralashdan, to majburiy choralar qo‘llashni ta’minlashgacha bo‘lgan faoliyatni amalga oshiradi;

beshinchidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish har qanday jamiyatga xos bo‘lgan vakolat bo‘lib, uning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi.⁵⁹

Ijtimoiy-gumanitar soha vakillari, keng jamoatchilik jamoatchilik nazoratining ijobiy va salbiy xarakterda namoyon bo‘lishi ham mumkinligi e’tirof etishadilar.

57 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014

58 Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari./Nashrga tayyorlovchilar: M.Bekmurodov, Q.Quronboev, L.Tangriev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

59 Goncharov V., Kovaleva L. Ob institutax obwestvennogo kontrolyya organov ispolnitelnoy vlasti v Rossiyiskoy Federatsii // Vlast. 2009. № 1. – S. 72.

Ijobiy ko‘rinishdagi nazorat jamiyat tomonidan u yoki bu xatti-harakatni tan olish, ulug‘lash, tashviq qilish tarzida amalga oshirilsa, ikkinchi tarafdan, salbiy xatti-harakatlarni qoralash, jazolash, qahr-g‘azab ko‘rinishida amalga oshiriladigan nazorat salbiy xarakterda namoyon bo‘ladi⁶⁰.

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. Jamoatchilik nazoratini olib borish yo‘nalishlari.
2. Samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish, ijtimoiy-ma’naviy muhit sog‘lomligini ta’minlash.
3. Ta’lim sifati va ilmiy salohiyatning yangi bosqichga ko‘tarishga oid masalalarni o‘rganish va tahlil qilish.

⁶⁰ Mamatov, G‘. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg‘unligi (O‘zbekiston Respublikasi misolida)/ Siyosiy fan.bo‘yicha fals.dok. ilmiy daraj.olish uchun yozilgan diss. –T.: 2020. –148 b. B. 109.

V. GLOSSARIY

V. GLOSSARY

Atama	O'zbek tilidagi sharhi
Aholining ijtimoiy faolligi –	ijtimoiy ongning kishilik jamiyatni siyosiy faoliyatiga tegishli bo'lgan tabiiy ehtiyojini belgilovchi holat.
Jamoat birlashmalari –	o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari va ixtiyoriylik asosida vujudga kelgan nodavlat notijorat tashkilotlari tashkiliy huquqiy shakllaridan biri.
Jamoat fondi –	fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmasan nodavlat notijorat tashkilotining huquqiy shakllaridan biri.
Jamoatchilik monitoringi	Davlat organlarining va ular mansabdon shaxslarining faoliyatini jamoatchilik manfaatiga daxldor axborotni yig'ish, umumlashtirish va tahlil etish orqali kuzatish jamoatchilik monitoringidir.
Jamoatchilik muhokamasi	Ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalarini ommaviy muhokama qilish jamoatchilik muhokamasidir.
Jamoatchilik nazorati –	jamoat nazorati rivojlangan fuqarolik jamiyatni ko'rsatkichi sifatida demokratik va huquqiy davlatning zaruriy xususiyati bo'lib, ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida fuqarolarning o'z huquq va manfaatlarini mustaqil himoya qilish huquqini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir.
Jamoatchilik nazoratining mavjudligi –	demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni taraqqiyotining muhim shartidir. Aynan jamoatchilik nazorati orqali fuqaro va jamoat tuzilmalari jamiyat hayotidagi muammolarning yechimini topishga erishadilar. Jamoatchilik nazorati instituti jamiyat hayotidagi kamchiliklarni bartaraf etish, fuqarolik jamiyatni barpo etishning, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni tashkil etishning muhim vositasi.
Jamoatchilik fikrini o'rganish	Jamoatchilik fikrini o'rganish turli ijtimoiy guruhlarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi, davlat organlarining, ular mansabdon shaxslarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini ta'minlashga doir faoliyati to'g'risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etishdan iboratdir.
Jamoatchilik ekspertizasi	Jamoatchilik ekspertizasi normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat

	manfaatlariga muvofiqligini aniqlash uchun ularni o‘rganish hamda baholashdan iboratdir.
Jamoatchilik eshitivi	Davlat organlarining, ular mansabdon shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yoxud fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig‘ilish jamoatchilik eshitividir.
Kasaba uyushmasi –	ixtiyoriylik asosida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o‘z a’zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog‘langan mehnatkashlarni birlashtiradi.
Korrupsiya —	shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish
korrupsiyaga oid huquqbazarlik —	korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish
Qonun —	O‘zbekiston Respublikasida eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan masalalar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadigan oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ hujjat.
qonun osti hujjatlari —	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarorlari
Nazorat —	hokimiyyat faoliyati jarayonidagi asosiy funksiyalardan biridir, fuqarolik jamiyati institutlari jamoat nazoratini amalga oshirishga qaratilgan faoliyati orqali davlatga nisbatan o‘ziga xos ta’sir kuchi yaratadilar. Bir so‘z bilan aytganda, jamoat tashkilotlari siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga hamda qabul qilinishi nazarda tutilayotgan qonun loyihalari va hukumat karorlariga o‘z munosabatini bildirishi orqali jamoatchilik nazoratini amalga oshiradilar.
Nodavlat notijorat tashkiloti -	jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti.
Normativ-huquqiy hujjatlar —	umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.
Normativ-huquqiy	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston

hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organlar yoki mansabdar shaxslar —	Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organlar yoki mansabdar shaxslar hisoblanadi
Strategik boshqaruv —	bu ta’lim muassasasining strategik maqsadi yo‘nalishida muassasa imkoniyatlarini pedagogik xodimlarning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihibar asosida boshqarishdir.
Strategik ko‘ra bilish —	tashkilot rivojlanish yo‘nalishi kelajagini ko‘ra bilish
Strategik qaror —	bunday turdagи qarorlar ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etib, unda muassasaning uzoqqa mo‘ljallangan rivojlanish vazifalari va maqsadlari belgilanadi. Strategik qarorlarni qabul qilishda ta’lim muassasasining istiqbolli harakat dasturi asos qilib olinadi.
Strategik menejment jarayoni —	tashkiliy atrofmuhitning murakkabligi va o‘zgaruvchanligi sharoitida korxona oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun ketma-ketlikdagi choralarning majmui bo‘lib, bu jarayon orqali korxona o‘z salohiyatini optimal darajada ishlatish va tashqi atrof-muhit o‘zgarishlariga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
Strategik nazorat va tartibga solish —	korporatsiya erishgan holatining tahlili va baholash jarayoni bo‘lib, pirovardida strategik maqsadlarga to‘liqroq erishishni tashkil etishdan iborat.
Strategik reja —	bu muassasada ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’limtarbiya jaraenida ko‘zlangan maqsadlarga erishish – raqobatbardosh bitiruvchilar tayorlash yo‘nalishida uzoq (uch, besh, o‘n yil va undan ko‘proq muddatlarni o‘z ichiga oladi) muddatlarga mo‘ljallangan vazifalarni o‘z ichiga olgan dastur (istiqbol reja) bo‘lib, u ta’lim muassasasining hamda rahbar xodimlarning yillik va joriy rejalar uchun asos sifatida xizmat qiladi.
Strategik rejorashtirish —	ta’lim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jaraen bo‘lib, bunda maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va ob’ektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb mahorati, tashqi muhit ta’siri, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, muassasa imkoniyatlarini hisobga olish.
Strategik rejorashtirish —	korxonaning strategik holatlarini tahlil qilish orqali korxonaning strategiyasini aniqlab olish jarayoni bo‘lib, bunda raqobatbardoshlik afzalliklarini moliyalashtirish va rivojlantirish, unga erishish va saqlab qolishga olib keluvchi ichki va tashqi omillar tadqiq qilinadi.
Strategik fikrlash —	rahbarning ta’lim mazmunini takomillashtirishdagi tendensiya, mavjud va kutilaetgan (ichki va tashqi) samaralar, shuningdek,

	raqobatchilar bilan solishtirganda muassasaning kuchli va ojiz tomonlarini tahlil qila olish qibiliyati.
Strategiya –	tashkilot maqsadiga erishish uchun intiluvchi rahbarning harakat tarzi.
Strategiyani amalga oshirish –	qabul qilingan strategiyani amalga oshirish, uni bajarishni qo'llab-quvvatlash va belgilangan natijalarga erishish bilan bog'liq boshqaruv faoliyatining to'la majmui.
Fuqarolik jamiyati –	muayyan ijtimoiy tizim, unda shaxsga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlik kafolatlanadi. Fuqarolik jamiyatida umuminsoniy huquqlar ta'minlanadi va siyosiy turli fikrlilik o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyatida davlat faoliyati yuzasidan fuqarolarning to'la nazorati o'rnatiladi, davlatning ko'pgina vazifalari mahalliy joylarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, jamoat birlashmalariga, nodavlat tashkilotlariga o'tadi.

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. // «Xalq so'zi», 2014 yil 15 yanvar.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. // «Xalq so'zi», 2016 yil 8 dekabr.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>.
6. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir // Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi, <http://uza.uz/oz/politics/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018>.
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. –B.488.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 30 dekabrdagi mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqidan.// Xalq so'zi, 2016 yil 31 dekabr.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

16. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2018.
17. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
18. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni 2014 yil 5 may O'RQ-376 – son.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 27 avgustdagagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni .

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947 - sonli Farmoni. Toshkent “Adolat” 2017 y. www.lex.uz.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-sonli qarori.
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3775-sonli qarori.
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 20.04.2017 yil № PQ-2909 - sonli Qarori
24. 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2017 yil 2 fevraldagi PQ-2752-sonli Qarori
25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 27 iyuldagı № PQ 3151 – sonli Qarori
26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish haqida”gi 103-sonli qarori.
27. 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5185-sonli Farmoni // www.lex.uz.
30. 14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

20. Agranovich M.L. Indikatorы dostijeniya seley ustoychivogo razvitiya v sfere obrazovaniya i natsionalnaya obrazovatelnaya politika. J.: Voprosy obrazovaniya. № 4. 2017 g., S.242-264. 1814-9545eISSN: 2412-4354.
21. Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri. –T.: Fan, 1999.
22. Berneys E. L. The Later Years. Public Relations Insights 1956-1986.- Rhinebeck: Free Press, 1986.
23. Okolesnova O.A. ObЩestvennyy kontrol: informatsionno-pravovye problemy teorii i praktiki: monografiya / O.A. Okolesnova. - M.: Ruslaysn, 2014. - 144 s.
24. Tayxler Ulrix. Mnogoobrazie i diversifikatsiya vysshego obrazovaniya: tendensii, vyzovы i variantы politiki. J.: Voprosy obrazovaniya. № 1. 2015 g., S.14-38. 1814-9545eISSN: 2412-4354.
25. Xolov A. X. Boshqaruv qarorlari qabul qilishda tizimli tahlildan foydalanish masalalari. J.: Jamiyat va boshqaruv. 2017 yil, № 2, 47 B.
26. Xoliqov Q. Jamoatchilik fikri: u qanday shakllantiriladi? //Fidokor, 2005, 28 iyun.
27. Chumikov A.N. Svyazi s obЩestvennostyu. –M.: Delo, 2000. – S.17.
28. Blek S. Vvedenie v pablik rileyshnz. Rostov-na-Donu, 1998. –S. 33-35.
29. Participation of Citizens in Local Public Life, report by the Steering Committee on Local and Regional Democracy (CDLR) prepared with the collaboration of Professor Gerry Stoker, adopted by the CDLR at its 25th meeting, 7-9 June 2000/ Local and Regional Authorities in Europe.
30. G'afforov N., Madaeva Sh., Maxmudov R. – Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining faoliyati mazmuni. Monografiya. T.Iqtisod-moliya. 2017.
31. Qahhorov Otabek Siddiqovich, Ta’lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini boholashdagi yondashuvlar va usullar // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil.
32. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim tizimini boshqarish. -T.: “Turon-Iqbol”: 2006. – 592 b.
33. Xolov A.X. Assessing the effectiveness of management decisions of local executive authorities. // Journal of Management Value & Ethics /Approved List Journal S.No. 1 & 63148. Jan-March. 18 Vol. 8 No.1 90-97 P.
34. Xolov A.X. Boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashning zamonaviy usullari va rahbar mas’uliyati. Monografiya. –T.: «Tafakkur-qanoti» nashriyoti, 2017. -224 bet.
35. Xolov A.X. Davlat hokimiyyati va boshqaruvini demokratlashtirishning

nazariy-metodologik masalalalri 2-jild. O‘quv qo‘llanma (hammuallif). –T.: «Spectrum media group» nashriyoti, 2015. - 224 bet.

36. Xolov A.X. Jamoatchilik nazorati –axloq kuzgusi. // O‘zMU xabarlari, 2011. 6-son. 187-190 betlar.

37. Xolov A.X. Menejment fani rivojida boshqaruq qarorlari qabul qilishning psixologik usullarining ahamiyati. // «Fan va ta’limni rivojlantirishda yoshlarning o‘rni» respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: O‘zYol, 2017 yil 24 noyabr. 533-537 betlar.

38. Xolov A.X. Otsenki effektivnosti upravlencheskix resheniy. Monografiya. Lambert Academic Publishing, Beau Bassin 2018 // <https://www.lap-publishing.com> – 54 str.

VI. Internet ma’lumotlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: www.press-service.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Hukumati portalı: www.gov.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi www.Lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining sayti. www.edu.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi vebsayti: www.parlament.gov.uz.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI JAMOATCHILIK NAZORATI TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 15 noyabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2018 yil 29 martda ma'qullangan

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari (bundan buyon matnda davlat organlari deb yuritiladi) faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari

Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qonun hujjatlarida kasaba uyushmalari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari belgilanishi mumkin.

Referendumlarga, sayovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, shuningdek mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot, tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, sud ishlarini yuritish, jazolarni ijro etish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3-modda. Jamoatchilik nazorati sub'ektlari

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati sub'ektlaridir.

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 iyuldaggi PQ-3837-sont qarori bilan tasdiqlangan Davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizom.

4-modda. Jamoatchilik nazoratining ob'ekti

Davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining ijro etilishini ta'minlashga;

o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarishga;

davlat xizmatlarini ko'rsatishga;

ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining ob'ektidir.

5-modda. Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari

Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar ustuvorligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi;

jamoatchilik nazorati sub'ektlarining xolisligi va beg'arazligi;

jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi;

jamoatchilik nazorati sub'ektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi.

6-modda. Jamoatchilik nazoratining shakllari

Jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;

davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;

jamoatchilik muhokamasi;

jamoatchilik eshituvi;

jamoatchilik monitoringi;

jamoatchilik ekspertizasi;

jamoatchilik fikrini o'rganish;

fugorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdon shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.

Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

7-modda. Davlat organlariga murojaatlар va so'rovlar

Jamoatchilik nazorati sub'ektlari davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilishga, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga so'rovlar yuborishga haqli.

Jamoatchilik nazorati sub'ektlarining murojaatlari va so'rovleri qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Jamoatchilik nazorati sub'ektlarining axborot olishga bo'lgan huquqi, agar mazkur axborot shaxsga doir ma'lumotlar yoxud davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar jumlasiga kiritilgan bo'lsa, cheklanishi mumkin.

8-modda. Davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish

Jamoatchilik nazorati sub'ektlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish huquqiga ega.

Davlat organlari o'zining ochiq hay'at majlislarida jamoatchilik nazorati sub'ektlari ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratadi.

9-modda. Jamoatchilik muhokamasi

Ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalarini ommaviy muhokama qilish jamoatchilik muhokamasidir.

Jamoatchilik muhokamasini nodavlat notijorat tashkilotlari, fugorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari o'tkazishi mumkin.

Jamoatchilik muhokamasi turli ijtimoiy guruhlarning vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan masala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan yoki daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik muhokamasining ishtirokchilari o'mmaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik muhokamasining ishtirokchilari jamoatchilik muhokamasiga kiritilgan masalalar yuzasidan o'z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy axborot vositalari orqali va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o'tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik muhokamasining tashkilotchisi jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalar, muhokamani o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi. Bunda tashkilotchi o'z ixtiyoridagi, jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalarga taalluqli bo'lgan materiallardan jamoatchilik muhokamasining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta'minlaydi.

10-modda. Jamoatchilik eshituvni

Davlat organlarining, ular mansabdon shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yoxud fugorolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan yig'ilish jamoatchilik eshituvividir.

Jamoatchilik eshituvini nodavlat notijorat tashkilotlari, fugorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari o'tkazishi mumkin.

Jamoatchilik eshituvni turli ijtimoiy guruhlarning vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan masala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan yoki daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik eshituvni ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik eshituvining ishtirokchilari jamoatchilik eshituviga kiritilgan masalalar yuzasidan o'z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli.

Jamoatchilik eshituvining tashkilotchisi jamoatchilik eshituviga kiritilayotgan masalalar, eshituvni o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi. Bunda tashkilotchi o'z ixtiyoridagi, jamoatchilik eshituviga kiritilayotgan masalalarga taalluqli bo'lgan materiallardan jamoatchilik eshituvining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta'minlaydi.

11-modda. Jamoatchilik monitoringi

Davlat organlarining va ular mansabdon shaxslarining faoliyatini jamoatchilik manfaatiga daxldor axborotni yig'ish, umumlashtirish va tahlil etish orqali kuzatish jamoatchilik monitoringidir.

Jamoatchilik monitoringini nodavlat notijorat tashkilotlari, fugorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilik nazoratining boshqa sub'ektlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin.

Jamoatchilik monitoringi ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik monitoringi axborot-

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o'tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik monitoringining tashkilotchisi jamoatchilik monitoringining ob'ekti, uni o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi.

12-modda. Jamoatchilik ekspertizasi

Jamoatchilik ekspertizasi normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariiga, jamiyat manfaatlariiga muvofiqligini aniqlash uchun ularni o'rganish hamda baholashdan iboratdir.

Jamoatchilik ekspertizasini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin.



LexUZ shari

Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentabrdagi O'RQ-409-sون «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni 24-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 19 sentabrdagi O'RQ-408-sون «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni 22-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrdagi 754-XII-sон «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunining 27-moddasi.

Jamoatchilik ekspertizasining tashkilotchisi tegishli sohada zarur bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarни jamoatchilik asosida jalb etishi ham mumkin.

13-modda. Jamoatchilik fikrini o'rganish

Jamoatchilik fikrini o'rganish turli ijtimoiy guruhlarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni, jamiyat manfaatlarni ta'minlashga doir faoliyati to'g'risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etishdan iboratdir.

Jamoatchilik fikrini o'rganishni nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazishi mumkin.

14-modda. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish

Fuqarolar yig'ini:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini;

ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining, joylardagi ta'lif muassasalari rahbarlarining hisobotlarini;

tegishincha oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari rahbarlarining axborotini;

tegishli hududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalariga doir hisobotlarini eshitadi.

15-modda. Jamoatchilik nazorati sub'ektlarining huquq va majburiyatları

Jamoatchilik nazorati sub'ektlari:

jamoatchilik nazoratini amalga oshirayotganda tadbirlar o'tkazish tashabbusi bilan chiqishga, ularni tashkil etishga, shuningdek ularda ishtirok etishga;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni qonun hujjatlariga muvofiq davlat organlaridan so'rab olishga;

jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra takliflar va tavsiyalar tayyorlashga hamda ularni tegishli davlat organlariga ko'rib chiqish uchun yuborishga;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, jamiyat manfaatlari buzilganligi faktlari aniqlangan taqdirda, materiallarni muhofaza qiluvchi organlarga yuborishga;

davlat organlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishga;

jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilishga haqlidir.

Jamoatchilik nazorati sub'ektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik nazorati sub'ektlari:

jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;
qonunda belgilangan, davlat organlarining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan cheklov larga rioya etishi;
davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan
faoliyatiga aralashmasligi;
davlat organlarining faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek ular mansabdor shaxslarining faoliyati uchun
to‘siqlar yaratmasligi;
fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l
qo‘ymasligi;
jamoatchilik nazoratini amalga oshirish chog‘ida olingan axborotning tarqatilishi qonun bilan cheklangan
bo‘lsa, uning maxfiyligiga rioya etishi shart.

Jamoatchilik nazorati sub‘ektlarining zimmasida qonun hujjatlari muvofiq boshqa majburiyatlar ham
bo‘lishi mumkin.

16-modda. Davlat organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi huquq va majburiyatları

Davlat organlari:

jamoatchilik nazorati sub‘ektlaridan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish to‘g‘risida va uning natijalari
haqida axborot olishga;

jamoatchilik nazorati natijalariga ko‘ra tayyorlangan yakuniy hujjatlarda ko‘rsatilgan takliflar va
tavsiyalarga nisbatan asoslantirilgan e’tirozlarini jamoatchilik nazorati sub‘ektlariga yuborishga;

o‘zi amalga oshirayotgan faoliyat ustidan jamoatchilik nazorati masalalariga doir axborotni o‘z rasmiy
veb-saytlarida, shuningdek ommaviy axborot vositalarida joylashtirishga;

jamoatchilik nazoratini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqishga haqli.

Davlat organlari qonun hujjatlari muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Davlat organlari:

jamoatchilik nazorati sub‘ektlariga jamoatchilik manfaatiga daxldor bo‘lgan o‘z faoliyati to‘g‘risidagi
axborotni qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda taqdim etishi;

o‘ziga jamoatchilik nazorati sub‘ektlari tomonidan yuborilgan murojaatlar va so‘rovlarni qonun
hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqishi, murojaatlarga va so‘ralayotgan axborotga javoblar
taqdim etishi, bundan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar
yoxud topshirilishi jamoat tartibiga va fuqarolarning hayotiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar mustasno;

jamoatchilik nazorati sub‘ektlari tomonidan yuborilgan takliflar va tavsiyalarni, shuningdek yakuniy
hujjatlar va materiallarni ko‘rib chiqishi shart.

Davlat organlarining zimmasida qonun hujjatlari muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

17-modda. Jamoatchilik nazoratining natijalari

Jamoatchilik nazoratining natijalariga ko‘ra bayonnomma, xulosa, ma’lumotnomma shaklida yoxud qonun
hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda yakuniy hujjat tayyorlanishi mumkin.

Yakuniy hujjat axborot va tavsiya xususiyatiga ega bo‘ladi.

Yakuniy hujjatda bayon etilgan axborot, tavsiya va takliflar davlat organlari tomonidan majburiy tartibda
ko‘rib chiqiladi hamda ular yuzasidan qonuniy qarorlar qabul qilinadi.

18-modda. Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda
javobgar bo‘ladi.

**19-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini
ta’minalash**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning
ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minalasin.

20-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib
chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minalasin.

21-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYoEV
Toshkent sh.,

2018 yil 12 aprel,
O'RQ-474-son

(*Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018 y., 03/18/474/1062-son*)